

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA  
MUROJAATLAR VA HUQUQBUZARLIKlar  
TO'G'RISIDAGI XABARLARNI  
QABUL QILISH, QAYD ETISH  
VA HAL ETISH TARTIBI

*O'QUV-AMALIY QO'LLANMA*

Toshkent – 2015

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

M u a l l i f l a r :  
**SH. T. Ikramov, M. Z. Ziyodullayev, I. A. Sottiyev**

T a q r i z c h i l a r :  
IIV Tashkiliy-inspektorlik boshqarmasi boshlig‘i **N. T. Sayfutdinov**  
IIV Tergov Bosh boshqarmasi boshqarma boshlig‘i **YA.A. Abdulhaqov**

**Ikramov SH.T.**

I 42      **Ichki ishlar organlarida murojaatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish, qayd etish va hal etish tartibi:** O‘quv-amaliy qo‘llanma / SH. T. Ikramov, M. Z. Ziyodullayev, I. A. Sottiyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 68 b.

Mazkur o‘quv-amaliy qo‘llanmada jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ichki ishlar organlariga murojaat qilishning huquqiy asoslari, ularni ko‘rib chiqish tartibi va qoidalari, shuningdek jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik va hodisalar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish, qayd etish va hal etish tartibi, miliitsiya tayanch punktlarida fuqarolarning murojaatlari, jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilish tartibi, navbatchilik qismiga kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayd etishning o‘ziga xos jihatlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarining aniqlangan huquqbuzarliklar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi va shartlari, jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlari hamda bu sohada yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklar uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi masalalari yoritilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilari, talabalari, tinglovchi va kursantlariga mo‘ljallangan.

**BBK 67.99(5U)116.31ya73**

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam moddiy va ma’naviy negizini yaratishdan iborat. Ushbu islohotlarning zamirida, eng avvalo, inson huquqlari va manfaatlari yotadi.

Konstitutsiyamizda belgilab berilgan normalar asosida mamlakatimizda inson, uning huquq va erkinliklari, sha’ni hamda qadr-qimmati eng oliv qadriyat darajasiga ko’tarildi. Bugungi kunga kelib, ushbu oliv qadriyatlar mamlakatimizning milliy qonunchilik normalari bilan huquqiy jihatdan to‘la mustahkamlangan.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz<sup>1</sup>.

Bosh qomusimizning 22 yilligi tantanasida davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tirof etilganidek, o‘tgan yillarda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarimizning huquqiy ongi, siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotganida namoyon bo‘lmoqda. O‘z navbatida, fuqarolarimiz ong-tafakkurida yuz berayotgan ushbu o‘zgarishlar va bugun kundalik hayotimizda ro‘y berayotgan yangilanishlar milliy qonunchiligidan zamon talablaridan kelib chiqib takomillash-tirib borishni taqozo etyapti. 2014-yilning 4-dekabridan kuchga kirgan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ham aynan bugungi zamon talablarining mahsulidir.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari – xoh u jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarga oid, xoh boshqa mazmunda bo‘lsin – o‘rnatalgan tartibda ularni ko‘rib chiqish hamda qonuniy hal etish ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biridir. Negaki, ichki ishlar organlariga qilingan har qanday murojaat ortida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash yoki davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq ustuvor masalalar yotadi.

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2013. – Б. 114.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni qabul qilish va qayd etish ushbu jarayonlarning muhim va ajralmas qismi bo‘lib, bugungi kunda amaliyotda nafaqat ichki ishlar organlarining murojaatlar, jinoyat va hodisalar to‘g‘risidagi xabarlarni hal etish faoliyatida, balki ularni qabul qilish va qayd etish sohasida ham jiddiy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligini kuzatish mumkin.

Bu esa ichki ishlar organlarining ushbu sohaga doir faoliyatini takomillashtirib borishga doir tashkiliy, huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirib borishni, qolaversa mazkur faoliyatni samarali ta’minalashga xizmat qiladigan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqib, amaliy faoliyatga joriy etib borishni talab qiladi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma aynan ushbu ehtiyojdan kelib chiqqan holda tayyorlangan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari tizimida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qabul qilish, qayd etish va hal etishning umumiy talablari, shuningdek Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ma’muriy huquqbuzarliklar, jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilish, qayd etish va qonuniy hal etishning tartibi, o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasida «huquqbuzarlik» tushunchasiga sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik), deb ta’rif berilgani sababli, qo‘llanmada ham ushbu tushuncha mazkur qonun talablari asosida ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o‘z ichiga olgan.

**I bob**  
**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JISMONIY**  
**VA YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY MUROJAATLARINI**  
**QABUL QILISH VA QAYD ETISH TARTIBI**

**1.1. Ichki ishlar organlariga jismoniy va yuridik  
shaxslar tomonidan qilinadigan murojaatlar  
va ularga qo‘yiladigan talablar**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrdagi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, har bir jismoniy va yuridik shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birlashtirishda barcha vakolatli davlat organlari qatori ichki ishlar organlariga huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish va ularni himoya qilishda yordam so‘rab, shuningdek ular buzilgan taqdirda tiklash hamda davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega.

Ichki ishlar organlariga jismoniy va yuridik shaxslardan bo‘ladigan har qanday mazmundagi murojaatlarni mazmuni va ko‘rib chiqish tartibiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1) ko‘rib chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan (umumiylashtirilgan) murojaatlar;

2) ko‘rib chiqish tartibi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, xo‘jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlar.

Bu ikki turdagiligi murojaatlarni mazmuniga ko‘ra ko‘rib chiqish tartibi bir-biridan farq qiladi.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, ichki ishlar organlariga bitta predmet bo‘yicha qilingan turli mazmundagi murojaatlarni ularning mazmunidan kelib chiqib, turli qonunlarda belgilangan tartib va talablariga asosan ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. *Masalan*, shaxsning fuqarolik pasporti olish yuzasidan qilgan murojaati O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni talablariga muvofiq ko‘rib chiqilsa, fuqarolik pasportini yo‘qotganligi haqidagi murojaati O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi talablariga muvofiq, fuqarolik pasportini o‘g‘irlat-

gani haqidagi murojaati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Shu sababli, ushbu qo‘llanmada jismoniy va yuridik shaxslarning ichki ishlar organlariga bo‘ladigan murojaatlarining yuqoridagi ikki turi alohida boblarda batafsil yoritishga harakat qilingan.

Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish murojaatning shakliga qarab belgilanadi. Arizalar IIB navbatchilik qismlari orqali, pochta va telegraf orqali kelgan xat-xabarlar esa kotibiyat orqali qabul qilinadi va qayd etiladi, shuningdek bevosita fuqarolarning o‘zlarini qabul qilib, murojaatlarini tinglash orqali ham ko‘rib chiqiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning quyi tizimlariga ariza, taklif, mulohaza va shikoyatlar bilan bevosita yoki bilvosita murojaat qilishlari mumkin. Ushbu murojaatlar Internet tarmog‘i (masalan, O‘zbekiston Respublikasi IIVning [www.mvd.uz](http://www.mvd.uz) veb-sayti), shuningdek bugun har bir ichki ishlar organida joriy etilgan ishonch telefonlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari tizimida taklif, ariza hamda shikoyatlarni ko‘rib chiqishning quyidagi umumiy qoidalari belgilangan:

fuqarolarni qabul qilish, ularning ariza, taklif va shikoyatlarini ko‘rib chiqish ichki ishlar organlari faoliyatining muhim qismi, axborot olish vositasi, omma bilan aloqani mustahkamlash va kengaytirish yo‘llaridan hisoblanadi. Har bir ichki ishlar xodimi fuqarolarning murojaatiga diqqat bilan munosabatda bo‘lishi, bunga o‘zining xalq va hukumat oldidagi burchi sifatida qaramog‘i lozim;

barcha ichki ishlar organlarida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning qonun bilan kafolatlangan yozma va og‘zaki shaklda ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilish huquqini amalga oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak;

mansabdor shaxslarning qilmishlari va mansabni suiiste’mol qilishlarini baholashdagi subutsizlik, to‘rachilik, sansalorlik holatlariga, fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etish, xatlar mualliflarini ta’qib etish va tanqidni bo‘g‘ish kabi salbiy harakatlarga keskin to‘siq qo‘yish, shuningdek fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqishning belgilangan tartibini buzgan mansabdor shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishlari shart;

vakolatli mansabdar shaxslardan xatlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish jarayonida fuqarolar bilan yuksak madaniyatli muomalada bo‘lish, ularning so‘rov va fikrlariga hurmat ko‘rsatish talab etiladi;

fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlaridagi axborotdan huquq-tartibot va qonuniylikni yanada mustahkamlash, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida foydalanish zarur;

xatlar bilan ishlash va fuqarolarni qabul qilishning tashkil etilishi hamda ahvoli uchun ichki ishlar organlarining rahbarlari shaxsan javobgardirlar.

Jismoniy va yuridik shaxslar ichki ishlar organlariga umumiy asoslarda murojaat qilgan taqdirda (masalan, ishga kirish, fuqarolik pasporti, xorijga chiqish va o‘qotar quroq saqlash uchun ruxsatnomalar), O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun talablari to‘liq amalda bo‘ladi. Ushbu qonunning 2-moddasiga muvofiq, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protcessual, jinoyat-ijroiya, xo‘jalik protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlarda ko‘rib chiqishning alohida tartibi belgilanganligi sababli ularga tatbiq etilmaydi. Masalan, harbiy xizmatchilarining xizmatni o‘tash bilan bog‘liq xatlari Ichki xizmat nizomi hamda Qurolli Kuchlarning Intizom nizomiga muvofiq ko‘rib chiqiladi va hal etiladi yoki jazoni ijro etish muassasalarida jazo o‘tayotgan mahkumlarning ariza, taklif va shikoyatlari O‘zbekiston Respublikasi IIVning «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2012-yil 29-dekabr buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yuqoridagi qonun talablari davlat organlarining yoki ular tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro yozishmalariga ham tatbiq etilmaydi, chunki ularda iltimosnama, so‘rovnoma, tabrik va boshqa shunga o‘xshash murojaatlar aks etib, yuridik shaxslar o‘zlarini muddat qo‘yishlari (masalan, mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan darslik qo‘lyozmasini o‘rganib, ikki oy ichida taqriz berish so‘ralishi) mumkin.

*Ichki ishlar organlari tizimida fuqarolarning ariza, shikoyat va takliflarini qabul qilish deganda ichki ishlar organlari mansabdar shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va IIV buyruqlarining talablari asosida fuqarolardan tushgan xabar va ma’lumotlarni qabul qilish hamda darhol ijrosini ta’minlashga qaratilgan qonuniy harakatlari tushuniladi.*

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ichki ishlar organlariga qilinadigan murojaatlar davlat tilida yoki boshqa tillarda berilishi, mazmun jihatidan turlicha bo‘lishi mumkin.

*Murojaatlarga qo‘yiladigan talablar.* Jismoniy shaxsning murojaatida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi va murojaatning mohiyati bayon etilishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida uning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar va masalaning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.

Yozma murojaat uni yozgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs rahbarining yoxud vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkonи bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergen shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan elektron hujjat shaklida bo‘lishi, shuningdek qonunda belgilangan talablarga muvofiq kelishi kerak.

Jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan, shuningdek imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar hisoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Ichki ishlar organlariga ommaviy axborot vositalari tahririyatlardan kelib tushgan murojaatlar qonunda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

***Murojaatlarni ko‘rmasdan qoldirish tartibi (asoslari).*** Quyidagi holatlarda murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi:

1. *Anonim murojaatlar*, ya’ni jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, yuridik shaxsning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilmagan yoki soxtalashtirib ko‘rsatilgan, shuningdek imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi. Ko‘rilmay qoldirilgan bunday xatlar kotibiyatda maxsus «anonim xatlar» yig‘majildida saqlanadi.

Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilanayotgani yoki jinoyat sodir etilgani haqidagi anonim xatlar jinoyatlarning oldini olish va ochishda foydalanish uchun istisno tariqasida tezkor xizmatlarga ro‘yxatga olmasdan taqdim etiladi.

2. *Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar (agar ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmasa).* Jismoniy va yuridik shaxsning vakili murojaat etish vaqtida o‘z vakolatini, shuningdek shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishi kerak.

Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish (agar ularning shunday xususiyatga ega bo‘lgan ilgarigi murojaatlari bo‘yicha qaror qabul qilingan va bu haqda ularga ushbu Qonunda belgilangan tartibda xabar qilingan bo‘lsa) rad etilishi mumkin.

3. *Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.* Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish (agar uning bir necha bor qilgan murojaati asossiz, qonunga xilof bo‘lsa yoki uning murojaati bo‘yicha qaror qabul qilingan bo‘lsa) rad etilishi mumkin.

Jismoniy yoki yuridik shaxs murojaati qabul qilinmagani va ko‘rib chiqish qonunga xilof ravishda rad etilgani ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organ yoxud bevosita sudga shikoyat qilishga haqli.

Ichki ishlar organlariga kelib tushgan va mazmuniga ko‘ra murojaat bo‘lmagan xat-xabarlar (tashakkurnomalar, tabriknomalar, ma’lumot tariqasida berilgan xabar va materiallar) ma’lumot uchun qabul qilinadi va odatda ularga javob berilmaydi.

## **1.2. Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini umumiyl tarzda qabul qilish va qayd etish tartibi**

Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari umumiyl tarzda ular bilan shaxsan uchrashib yoki pochta, telegraf va boshqa vositalar orqali qabul qilinishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi II V tizimining barcha idoralari, ta’lim muassasalari, qorovul qo‘sishlari, jazoni ijro etish muassasalari, militsiya tayanch punktlarida fuqarolarni qabul qilish uchun ajratilgan maxsus xonalarda qabul qilinadilar.

Qabul avvaldan belgilangan kun va soatlarda, fuqarolar uchun qulay bo‘lgan vaqtida o‘tkazilishi kerak. Har bir ichki ishlar organi binosida uning rahbariyati, yuqori turuvchi idoralarining rahbarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish jadvali fuqaro-

larga ko‘rinarli joylarga o‘rnatalishi shart. Shuningdek, jadval ichki ishlar organi xizmat ko‘rsatadigan hududning militsiya tayanch punktlarida ham ilib qo‘yilishi lozim.

Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish jadvalida qabul qiluvchi mansabdor shaxslarning familiyasi, lavozimi, unvoni, qabul kuni, soati va joyi ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi IIV, uning asosiy binosidan tashqarida joylashgan bosh boshqarma, boshqarmalari, o‘quv yurtlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar hamda Transportdagi IIB rahbariyati jismoniy va yuridik shaxslarni oyiga ikki marta shaxsan qabul qilishlari shart.

Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining rahbariyati, tuman-shahar IIB rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslarni haftasiga kamida bir marta, profilaktika inspektorlari esa ikki marta qabul qilishlari shart.

Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish uchun zarur buyumlar bilan jihozlangan va ro‘yxatga muvofiq qo‘llanmalar bilan ta‘minlangan maxsus qabulxonalar ajratiladi. Qabulxonaga hech qanday ruxsatsiz, erkin kirish ta‘minlanishi zarur.

Jismoniy va yuridik shaxslar o‘zlarining ish va yashash joylarida qabul qilinishi mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish jadvali ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Murojaat qiluvchilarning istaklarini inobatga olib, qabulga avvaldan yozilish imkonini yaratilishi ham mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish navbat asosida o‘tkaziladi. Bu tartibga rioya qilish uchun qabulxonada ro‘yxat tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy kengashlar deputatlari, Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, nogironlar, homilador va yosh bolasi bor ayollar navbatsiz qabul qilinadilar.

Fuqarolarni qabul qilish paytida ularning roziligi bilan jamoatchilik asosida huquqshunos, pedagog, ommaviy axborot vositalari xodimlari va jamoat tashkilotlarining vakillari qatnashishlari mumkin. Qabul o‘tkazilayotgan xonada bunga bevosita aloqasi yo‘q shaxslarning bo‘lishi man etiladi.

Shaxsiy qabul jarayonida ichki ishlar organlarining rahbarlari qaroriga ko‘ra hamda murojaat etuvchining yozma roziligi bilan maxsus texnika vositalari (audio- va videoyozuv, shuningdek fotoapparat) qo‘llanilishi mumkin.

Ichki ishlar organining fuqarolarni qabul qilayotgan mansabdor shaxsi, murojaat qilgan shaxsning masalasini malakali hal etish maqsadida, tegishli bo‘limlar xodimlarini jalb etishi yoki ulardan kerakli maslahatlar olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilishga faqat tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida, shuningdek shoshilinch chora ko‘rishni talab etuvchi boshqa voqealar haqida murojaat bo‘lgan holda ruxsat etiladi.

Fuqarolarni qabul qilish ichki ishlar organi nomidan o‘tkaziladi. U qabulga keluvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjat bilan tanishadi, yashash manzilini aniqlaydi, so‘ngra qaysi masalada murojaat etayotganini bayon etishini so‘raydi. Agar fuqaro shu masalada mazkur idoriga ilgari ham murojaat qilgan bo‘lsa, suhbatdan oldin mavjud hujjatlar o‘rganib chiqiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar turli masalalarda murojaat qilishlari mumkin. Jumladan:

1. Kundalik hayotda uchraydigan tashkiliy masalalar (masalan, ishga qabul qilish, fuqarolik pasporti olish, ro‘yxatga (propiskaga) qo‘yish, tavsifnomasi olish, xorijga chiqishga hujjatlarni rasmiylashtirish, rahbardan biror ishni bajarish uchun ruxsat so‘rash va boshqalar).

Rahbar murojaatda ko‘rsatilgan masalani o‘z vakolati doirasida shaxsan hal qilishi yoki qonunga muvofiq rad etishi, shuningdek hal etishni qo‘l ostidagi tegishli xodimlarga topshirishi mumkin.

2. Turli muammoli (jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlikka aloqador bo‘lmagan) vaziyatlarni hal etishni so‘rab qilingan murojaatlar (masalan, qarz olgan tanishi uni qaytarmayotgani, mahalladagi yo‘llar ta’mirlanmayotgani, mahallada gaz yo‘qligi va boshqalar).

Bu turdagi murojaatlarni hal etish uchun rahbar tegishli idoralarga murojaat etish kerakligini tushuntiradi, agar muammoli vaziyat ichki ishlar organi vakolati doirasida bo‘lsa, uni tegishli tartibda ko‘rib chiqish va hal etish uchun qo‘l ostidagi xodimlarga topshiriq beradi.

3. Intizomiy yoki ma’muriy huquqbuzarlik bilan bog‘liq holatga (masalan, yengil tan jarohati yetkazish, pasportni yo‘qotish, ichki ishlar organi xodimining o‘z qo‘schnisini haqorat qilishi, yo‘l-patrul xizmati yoki profilaktika inspektorining hujjatlarni olib, qaytarib bermayotgani va boshqalarga) oid murojaatlar.

Bu turdagi murojaatlarni rahbar eshitib, batafsil tahlil qiladi, masalani ko‘rib chiqish, ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha bayonnomasi

tuzish va qaror qabul qilish uchun tegishli xodimga, xizmat tekshiruvi bilan bog‘liq masalalarini esa SHTBIXga siperish (ko‘rsatma) bilan yuboradi.

4. Fuqarolarning jinoyat yuzasidan yoki jinoyatga aloqador holatlar bo‘yicha murojaatlari (masalan, jinoyat haqida xabar berish, tergov qilinayotgan jinoyat holatlari bo‘yicha yangi ma’lumotlarni taqdim etish, tergov jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan qonunbuzarliklar haqida shikoyat qilish va boshqalar).

Bu toifadagi xabarlargacha rahbar alohida e’tibor qaratib, mazmuni dan kelib chiqqan holda qaror qabul qiladi. Jumladan, agar jinoyat haqida birinchi marotaba xabar berilayotgan bo‘lsa – surishtiruvchi yoki tergovchini darhol chaqirib, sodir etilgan jinoyat haqidagi arizani o‘rnatalgan tartibda olishni, agar tergov qilinayotgan jinoyat ishi bo‘yicha yangi holat aniqlansa – ishni tergov qilayotgan tergovchiga tafsilotlarni rasmiylashtirishni topshiradi. Agar murojaat yozma bo‘lsa, rahbar siperish qo‘yib, ishni yuritayotgan tergovchiga yuboradi; tergov jarayonida yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishi haqidagi murojaatni tergovchining bevosita rahbariga yoki tergov boshqarmasiga yoxud xizmat tekshiruvi o‘tkazish uchun SHTBIXga yuboradi.

Agar arizachi murojaatida keltirilgan masalani hal qilish ichki ishlar organlarining vakolatiga kirmasa, qabul qiluvchi unga qaysi idora, tashkilot va muassasaga murojaat qilish kerakligini tushuntiradi va bu borada imkon darajasida yordam beradi.

Qabul qilingan fuqarolar, ular murojaat etgan masalalar va ularni ko‘rib chiqish natijalari belgilangan shakldagi daftarda qayd etib boriladi.

Murojaat yuzasidan qaror qabul qilgan ichki ishlar organlarining mansabdor yoki boshqa vakolatli shaxsi, agar jismoniy yoki yuridik shaxs qarordan rozi bo‘lmasa, bu borada shikoyat qilish tartibini tushuntirishi shart.

Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarining buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida murojaatlar har chorakda kamida bir marta umumlashtiriladi va tahlil qilib boriladi.

***Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma murojaatlarini qabul qilish va qayd etish tartibi.*** Jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlaridan kelgan barcha yozma murojaatlar

(xatlar) kotibiyatda o'sha kunning o'zidayoq qayd qilinishi shart. Xatning birinchi betiga, matndan bo'sh qolgan joyga ichki ishlar organining to'rtburchak muhri bosilib, xat kelgan kun va qayd qilish tartib raqami yozib qo'yiladi.

Anonim xatlar boshqa murojaatlardan alohida yuritiladigan yig'majlidda o'rnatilgan tartibda saqlanadi.

Xatlar jismoniy va yuridik shaxslarning taklif, ariza va shikoyatlarini hisobga olish daftarida ro'yxatga olinib, ularning qaysi tartibda ko'rilgani va hal etilgani qayd etiladi.

Takroriy xatlar ham yuqoridagi kabi qayd qilinadi, faqat daftarda «takroriy» degan belgi qo'yiladi. Xatning birinchi betidagi ochiq joyiga «takroriy» degan shtamp bosiladi, ilgari qayerga yuborilgani yozib qo'yiladi.

Bir shaxs tomonidan ayni bir masala yuzasidan kelgan xatlarda:

- mazkur ichki ishlar organiga kelgan avvalgi xat bo'yicha chiqarilgan qarordan shikoyat qilinsa;
- agar xatda qonunda belgilab qo'yilgan, ko'rib chiqish muddati o'tib ketgan avvalgi xat o'z vaqtida hal etilmaganligi haqida xabar qilinsa;
- avvalgi xatni ko'rib chiqish va hal etishda yo'l qo'yilgan boshqa kamchiliklar ko'rsatilgan bo'lsa, bu holatlar takroriy hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari rahbarlari fuqarolarning takroriy murojaatlari sabablarini chuqur va batafsil o'rganib chiqishlari shart. Agar takroriy xat dastlabki to'liqsiz, chala tekshirilgan xatni ko'rib chiqish yoki hal etishning belgilangan tartibi buzilishi tufayli yozilgan bo'lsa, rahbar aybdor shaxsga nisbatan tegishli choralar qo'llashi zarur.

Ayni bir shaxs ayni bir masala bo'yicha bir nechta joyga xat yuborgan va xatlar hal etish uchun o'sha joylardan ichki ishlar organiga jo'natilgan bo'lsa, alohida-alohida hisobga olinishi, ammo ularning barchasi bitta xat sifatida ko'rib chiqilishi va takroriy deb hisobga olinmasligi kerak.

Qayd etilgan xatlar ko'rib chiqish uchun asosan ichki ishlar organi rahbariga beriladi. U, o'z navbatida, xatlarni hal qilish tartibi va muddatini belgilashi, har bir xat bo'yicha ijrochilarga yozma ko'rsatma berishi shart. Xat matni ustida hech qanday yozuv (siporish, ko'rsatma va shu kabilar) bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ichki ishlar organlari va shu idoradagi mansabdor xodimlarning xatti-harakatlari ustidan yozilgan shikoyat va arizalarni hal etish uchun aynan shu idora yoki mansabdor shaxslarga yuborish man etiladi.

Har bir xat bo‘yicha *besh kundan kech bo‘lmagan muddat ichida* quyidagi qarorlardan biri qabul qilinishi kerak:

- tekshirish o‘tkazish uchun o‘zida qoldirish;
- hal etish uchun o‘ziga bo‘ysunadigan yoki boshqa ichki ishlar organiga yuborish;
- xatda ko‘rsatilgan masalani hal etish ichki ishlar organlari vakolatiga kirmaydigan bo‘lsa, uni tegishli idoralarga jo‘natish. Agar fuqaroning xatida uni tegishli organga jo‘natish uchun zarur ma’lumot bo‘lmasa, bu xat besh kun mobaynida asoslantirilgan tushuntirish bilan fuqaroning o‘ziga qaytariladi;
- agar xat takroriy bo‘lsa, avvalgisiga qo‘shib qo‘yiladi va ikkinchi (takroriy) xatda yangi ma’lumotlar bayon qilingan bo‘lsa, ko‘rib chiqish jarayonida e’tiborga olinadi.

Agar xatda ichki ishlar organlari vakolatiga doir masalalar qatorida boshqa davlat idoralarida hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ko‘rsatilgan bo‘lsa, tegishli idoraga xatning nusxasi yoki undan ko‘chirma yuboriladi va bu haqda arizachiga ma’lum qilinadi.

Nazoratga olingan xatga ikki nusxada nazorat varaqasi to‘ldirilib, ulardan biri nazoratni amalga oshiruvchi kotibiyatga, ikkinchisi xat bilan birga ijrochiga beriladi.

Xat bo‘yicha barcha yozishmalarga uni qayd qilish paytida berilgan tartib raqami qo‘yiladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning xatlariga javob ichki ishlar organlarining ish yuritish qog‘ozlarida mazkur ichki ishlar organi rahbari yoki boshqa vakolatli mansabdor shaxs imzosi bilan beriladi.

Tekshirish tugaganidan va qabul qilingan qaror amalda bajarilgandan so‘ng xat va u bo‘yicha olib borilgan yozishmalar qarorni qabul qilgan mansabdor shaxsning imzosi asosida «hujjatlar yig‘majildiga» degan yozuv bilan ichki ishlar organi kotibiyatiga topshiriladi.

Yig‘majidda hujjatlar sana bo‘yicha yoki alifbo tartibida joylashtiladi. Har bir xat hamda uni ko‘rib chiqish va hal etishga oid barcha hujjatlar yig‘majidda alohida guruhni tashkil etadi. Takroriy xat olingan taqdirda yoki qo‘srimcha hujjatlar paydo bo‘lsa, ular ushbu hujjatlarga qo‘shib qo‘yiladi. Ish yig‘majildining to‘ldirilishida undagi hujjatlar jo‘natilishining to‘g‘riliqi, to‘liqligi, butligi tekshiriladi. Hal etilmagan xatlarni, shuningdek noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlarni ish yig‘majildiga tikib qo‘yish man etiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning xatlari bo‘yicha hujjatlar va yozishmalar ichki ishlar organlari kotibiyatlarida boshqa hujjatlardan alohida ro‘yxatga olinadi va saqlanadi.

Agar jismoniy va yuridik shaxslar xodimlarning intizombuzarligi yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilsa yoki bu haqdagi ariza pochta orqali kelsa, har ikkala holatda ham ariza IIB kotibiyatidagi alfavitli kitobda qayd etiladi.

Ichki ishlar bo‘limi kotibiyati va kanselariya bo‘limlariga pochta, telegraf orqali, qo‘lda, shuningdek jazoni ijro etish muassasalarida senzura tekshirishlari orqali olinib, kelib tushgan jinoyat haqidagi ariza va xabarlar kirish kitobida belgilangan tartibda qayd etiladi va shahartuman IIB boshlig‘i yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxsga axborot beriladi hamda xat va arizalar zudlik bilan IIB navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnalida qayd etish uchun beriladi.

Jinoyatga oid ariza yoki xatlarni IIB kotibiyatida qayd etib saqlash qat’yan man etiladi.

**II bob**

**MUROJAATLAR, JINOYAT VA HODISALAR**

**HAQIDAGI XABARLARNI HUDUDIY PROFILAKTIKA**

**INSPEKTORLARI\* TOMONIDAN QABUL QILISH**

**VA QAYD ETISH TARTIBI**

**2.1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi**

Profilaktika inspektorlari o‘ziga biriktirilgan ma’muriy hududdagi militsiya tayanch punkti (MTP)da fuqarolarni tasdiqlangan jadval asosida va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qiladi.

Amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq, har bir MTPda fuqarolarni qabul qilish uchun munosib, qulay shart-sharoitlar yaratilishi, shuningdek fuqarolarning ariza va shikoyatlari uchun maxsus quti o‘rnatilgan bo‘lishi lozim.

Fuqarolarning murojaatlari og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi, murojaat yakka tartibda yoki jamoa tomonidan berilishi, ariza, taklif yoki shikoyat ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Og‘zaki murojaat etayotgan fuqaro shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ko‘rsatishi shart.

Har bir MTPda profilaktika inspektori tomonidan «Fuqarolarni qabul qilish kitobi» yuritiladi. Murojaat sanasi, mazmuni va murojaat qilgan fuqaro to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu kitobda qayd etib boriladi. Shuningdek, MTPda «Fuqarolarning taklif va tavsiyalari kitobi» ham yuritiladi. Kitob fuqarolar, jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi va boshqa shaxslar tomonidan taklif va tavsiyalarni qayd etish uchun talab qilingan taqdirda taqdim etiladi.

Fuqarolarning profilaktika inspektoriga jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlaridan boshqa barcha shakldagi yozma murojaatlari hududiy ichki ishlar organi kotibiyatida shu kunning o‘zida qayd etilishi shart.

Fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoki u haqda soxta ma’lumotlar ko‘rsatilgan, shuningdek, imzo qo‘yilmagan yozma murojaatlar anonim hisoblanib, profilaktika inspektori tomonidan ko‘rib chiqilmaydi. Faqatgina tezkor qiziqish uyg‘otadigan ma’lumotlari mavjud bo‘lgan

---

\* Бу ва кейинги ўринларда профилактика катта инспекторлари хам назарда тутилади.

bunday (anonim) murojaatlarga tezkor yo'llar bilan tekshirib ko'riliши mumkin.

Ta'kidlash kerakki, fuqaroning bir necha bor qilgan murojaati asossiz, qonunga xilof bo'lган yoki uning murojaati bo'yicha qaror qabul qilingan taqdirda profilaktika inspektori uni qabul qilmasligi mumkin.

Profilaktika inspektori tomonidan fuqarolarning murojaatlari bo'yicha ko'rigan chora-tadbirlar to'g'risidagi barcha ma'lumot va javoblar yozishmalar kotibiyatda alohida yuritiladigan kitoblarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Profilaktika inspektori tomonidan fuqarolarning ariza va shikoyatlari ichki ishlar organlariga kelgan kundan boshlab bir oygacha bo'lган muddatda, qo'shimcha o'rganish va tekshirishni talab etmaydiganlari esa o'n besh kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda ichki ishlar organi rahbarining ko'rsatmasiga binoan ko'rib chiqish muddatlari qisqartirilishi ham mumkin.

Shu bilan birga, profilaktika inspektori tomonidan ariza yoki shikoyatni hal etish uchun maxsus tekshiruv o'tkazish, qo'shimcha materiallar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lган hollar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasida nazarda tutilgan holatlardan biri mavjud bo'lganida ariza va shikoyatni ko'rib chiqish muddatini uzaytirishni so'rab prokurorga murojaat qilinadi, ko'rib chiqish muddati uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va bu haqida ariza yoki shikoyat qilgan shaxsga xabar qilinadi.

Profilaktika inspektori o'zi yuritayotgan ariza va shikoyatlarni belgilangan muddat va tartibda ko'rib chiqishi hamda qonuniy hal etishi talab etiladi. Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlarini ko'rib chiqish va qabul qilish jarayonida profilaktika inspektori fuqarolar bilan yuksak muomala madaniyati bilan suhbatlashishi, ularning so'rov va fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozim.

Profilaktika inspektori fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlaridagi ma'lumotlardan ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarni fosh etish, qidiruvdag'i va ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, huquqbazarliklarning profilaktika-sini amalga oshirish va o'z xizmat faoliyatini takomillashtirishda foydalanishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, fuqarolar murojaatlarining qonuniy ko'rib chiqilishi va o'z vaqtida hal etilishi profilaktika inspektorlari faoliyatini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

## **2.2. Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik bilan bog'liq ariza va xabarlarni hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi**

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyati yo'lga qo'yilgan 3758 ta militsiya tayanch punkti mahallalar, shaharchalar, qishloq va ovullarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishi bilan bir vaqtda, shaxslarga o'z huquqlarini himoya qilish masalasida, shu jumladan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik bilan bog'liq xabarlari yuzasidan hududiy profilaktika inspektorlariga zudlik bilan murojaat qilish imkonini bermoqda.

Militsiya tayanch punkti profilaktika inspektoriga xizmat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar yoki boshqa shaxslar sodir bo'lgan **jinoyat haqida** yozma ariza bilan va og'zaki tarzda murojaat qilishlari mumkin.

Fuqarolarning yozma murojaati ariza shaklida ifodalanadi. Bunda jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar bermoqchi bo'lgan shaxs o'z ona tili yoki o'zi erkin gaplasha oladigan boshqa tilda ariza yozish huquqiga ega.

Fuqarolar tomonidan hududiy profilaktika inspektoriga jinoyat haqida og'zaki murojaat qilingan taqdirda, jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xabar bayonnomaga yozilib hujjatlashtiriladi hamda ma'lumotlar militsiya tayanch punktidagi fuqarolarni qabul qilish kitobida qayd etiladi. Bu talab aybini bo'yniga olish haqidagi arizani qabul qilish tartibiga ham birdek amal qiladi.

Arizani qabul qilgan profilaktika inspektori tomonidan jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq tarzda yolg'on ma'lumot berganligi uchun JPKning 324-moddasi va JKning 237, 238-moddalariga muvofiq, javobgarlik masalasi hal etilishi to'g'risida arizachiga tushuntirilishi lozim.

Militsiya tayanch punkti profilaktika inspektori jinoyat haqida xabar kelib tushganida, uni qabul qilish choralarini ko'rishi lozim. U hududda faoliyat ko'rsatayotgani yoki boshqa sabablarni ro'kach qilib, jinoyat to'g'risidagi xabarni qabul qilmaslikka haqli emas.

Profilaktika inspektori jinoyat haqida xabarni olganidan keyin zudlik bilan telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali tegishli IIB navbatchilik qismiga axborot berishi lozim.

Profilaktika inspektori tomonidan jinoyat haqida berilgan xabar shahar-tuman ichki ishlar bo‘limi navbatchilik qismining navbatchilari tomonidan zudlik bilan qayd etiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1993-yil 5-yanvardagi va 1996-yil 17-iyul kunidagi buyruqlari talablariga asosan, jinoyat haqidagi xabar o‘rnatilgan tartibda navbatchilik qismidagi 2-shakl jurnalida qayd etiladi, ariza bilan murojaat qilinganida yoki materiallar bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan hollarda bu xabar tegishli tartibda 1-shakl kitobiga o‘tkaziladi.

Negaki, IIVning 1993-yil 5-yanvardagi «Ichki ishlar organlarida jinoyat haqidagi ariza, shikoyat va boshqa turdagи xabarlarni qabul qilish, hisobga olish, qayd etish va hal etish tartibi to‘g‘risida»gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomaning 1.4-bandiga muvofiq, telefon, telefaks, telegraf, teleradio orqali tushgan xabarlar hamda IIB xodimlarining jinoyat haqidagi xabarları 2-shakl jurnalida qayd etiladi.

Hududiy profilaktika inspektori tomonidan xabarni o‘z vaqtida uzatishning imkoni bo‘lmasdan jinoyatga oid ariza, xabar, hodisa to‘g‘risidagi ma’lumot ayrim sabablarga ko‘ra kechroq qabul qilinganida jinoyat yoki hodisa sodir etilgan va xabar kelib tushgan aniq vaqt 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining 2-ustunida ko‘rsatiladi.

Shaxslarning militsiya tayanch punkti profilaktika inspektoriga **ma’muriy huquqbazarlik haqida** bergan xabarları ham, jinoyat haqidagi xabarlar singari, yozma va og‘zaki ravishda qabul qilinishi mumkin.

Fuqarolar tomonidan hududiy profilaktika inspektoriga ma’muriy huquqbazarlik haqida og‘zaki murojaat qilingan taqdirda, ushbu xabar, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, bayonna ma’suda hujjatlashtiriladi hamda ma’lumotlar militsiya tayanch punktidagi fuqarolarni qabul qilish kitobida qayd etiladi.

Jinoyat haqidagi xabar singari, ma’muriy huquqbazarlik haqidagi xabarni ham militsiya tayanch punkti profilaktika inspektori zudlik bilan qabul qilishi va o‘rnatilgan tartibda telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali tegishli IIB navbatchilik qismiga yetkazishi shart.

Biroq, shahar-tuman IIBlarida ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘-risidagi xabarlarni qayd etish, ularning hisobini yuritish jinoyat haqidagi xabarlarni qayd etishdan biroz farq qiladi. Jumladan, militsiya tayanch punktlari profilaktika inspektorlari ma’muriy huquqbazarlik haqida telefon orqali tuman-shahar IIB navbatchilik qismiga xabar bergenlarida, ushbu xabar tezkor navbatchi tomonidan 2-shakl jurnalida, holatni tekshirish

davomida aniqlangan jinoyat bilan bog‘liq bo‘lмаган har qanday holat kotibiyatdagi alfavitli kitobda qayd etiladi.

Militsiya tayanch punkti profilaktika inspektori tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi xabar yoki hujjatlar telefon orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etilganida bu xabar bevosita IIB kotibiya-tidagi alfavitli kitobda qayd etiladi. Keyinchalik tekshiruv va o‘rganish davomida materialda jinoyatga oid belgilar aniqlansa, xabar navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobida qayd etiladi.

Biroq bugun amaliyotda ayrim ichki ishlar organlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar haqidagi yozma va og‘zaki xabarlarni ham IIB navbatchilik qismidagi 2-shakl jurnalida qayd etib, hisobini yuritish holatlari kuzatilmoxda. Shu sababli, barcha ichki ishlar organlari tizimi-da ma’muriy huquqbuzarlik bilan bog‘liq xabarlarni qabul qilish va qayd etish masalasiga yuqorida keltirilgan tartibda bir xil yondashish maqsad-ga muvofiqdir.

Militsiya tayanch punkti profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyat bilan bog‘liq xabarlarni qabul qilish va qayd etishda alohida e’tibor qaratish talab etiladigan holatlardan biri **xususiy ayblov instituti**, ya’ni **JPKning 325-moddasasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad qilinishi talab etiladigan jinoyatlar bo‘yicha xabarlarni qabul qilish va qayd etishdir**.

Surishtiruv amaliyotida jabrlanuvchi dastlab militsiya tayanch punkti profilaktika inspektoriga ariza bilan murojaat etib, keyinchalik jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar, o‘zi bergen shikoyat arizasidan voz kechib, jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslikni iltimos qilishi holatlari uchraydi.

Bu kabi vaziyatlarda, JPKning 325-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish talab etiladi. Sababi, jabrlanuvchi JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha ariza berish yoki bermaslik huquqi ega. Qolaversa, xususiy ayblov institutining jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilishidan maqsad ham jinoyat ishi qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad etish masalasini bevosita jabrlanuvchining xohishi-dan kelib chiqqan holda hal qilish tartibini joriy etishdan iborat. Ushbu holat berilgan arizani JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan tartibda faqat uni bergen jabrlanuvchi qaytarib olishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, jinoyat haqidagi ariza yoki xabarlar IIB navbatchilik qismlarida yuritiladigan 1-shakl yoki 2-shakl kitoblari-da qayd etilganligi keyinchalik jabrlanuvchining arizasini ko‘rib chiqish-ga monelik qilmaydi.

Jabrlanuvchi profilaktika inspektoriga bergen arizaga muvofiq jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, uning o‘z arizasini qaytarib olishi jinoyat ishining tugatilishiga asos bo‘lmaydi. Bu kabi holatlarda ish JKnning 66<sup>1</sup>-moddasi va JPKning 62-bobida nazarda tutilgan tartibda hal etilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari tegishli xizmatlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 325-moddasini amalda qo‘llashga doir 2014-yilgi natijalar o‘rganilganida ushbu modda hududiy profilaktika inspektorlari (89,4 % hollarda), tergov apparatlari (5,3 %), jinoyat qidiruv xizmati (4,8 %) va boshqa xizmatlar xodimlari (0,5 %) tomonidan qo‘llanib kelinayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, JPKning 325-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar sodir bo‘lganda ishni yuritayotgan mansabdor shaxs bajarishi lozim bo‘lgan harakatlar ketma-ketligi va tuzilishi lozim bo‘lgan protsessual hujjatlar tizimi amaldagi jinoyat-protsessual qonun normalarda o‘z ifodasini topmagan. Bu esa o‘rganilayotgan asos bilan rad etilayotgan ishlarning mazmunan va shaklan turlicha bo‘lishiga, birida mavjud protsessual hujjatning ikkinchisida bo‘lmasligiga olib kelmoqda. Aynan mazkur omil JPKning 325-moddasi bo‘yicha tuzilishi lozim bo‘lgan protsessual hujjatlar tizimini ishlab chiqish qanchalik zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Shu sababli, JPKning 325-modasini qo‘llash davomida hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan quyidagi prosyessual hujjatlar tuzilishi lozim:

*1) Jabrlanuvchiga jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab ariza berish yoki berishdan voz kechish huquqiga ega ekanligini tushuntirish haqidagi bayonnaoma.*

Mazkur hujjatda JPKning 64 va 325-moddalari talablariga muvofiq, jabrlanuvchiga jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab yozma yoki og‘zaki shaklda ariza berish yoxud berishdan voz kechish huquqiga ega ekanligi, agar ariza yozishdan voz kechsa, ish qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi va jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilmasligi hamda keyinchalik mazkur ish materiallari bo‘yicha jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab ariza berish huquqidan mahrum bo‘lishi batafsil tushuntiriladi.

Shuningdek, turli tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida, jabrlanuvchiga «Menga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab yozma yoki og‘zaki shaklda ariza berish yoxud berishdan voz kechish huquqiga ega ekanligim to‘liq tushuntirildi» deya o‘z qo‘li bilan qayd ettirish maqsadga muvofiqli.

Jabrlanuvchiga jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab ariza berish yoki berishdan voz kechish huquqiga ega ekanligini tushuntirish haqidagi bayonnomma JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan barcha holatlarda tuzilishi lozim.

2) *Jabrlanuvchining arizasi*. Jinoyat ishi qo‘zg‘atish bo‘yicha yoziladigan ariza bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilmaslikni so‘rab beriladigan arizaning mazmuni bir-biridan tubdan farq qiladi. Qolaversa, aynan mazkur hujjatning tuzilishi jabrlanuvchining JPKning 325-moddasida belgilangan tartibda jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atmaslik bo‘yicha munosabatiga oydinlik kiritishi bilan birga, ish materiallarini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish imkonini beradi.

Ushbu turdag'i ariza ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida jabrlanuvchiga JPK 325-moddasining talablari va qo‘llash shartlari to‘liq tushuntirilganligi bayon etiladi. Ikkinci qismida esa, jabrlanuvchining hech qanday da’vosi yo‘qligi sababli mazkur shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish bo‘yicha shikoyat arizasi yozishdan voz kechganligi aks ettiriladi.

3) *Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi qaror*. Mazkur qaror yuqorida ko‘rsatilgan barcha talablar bajarilgandagina qabul qilinishi lozim.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi qarorning *tavsif-asoslantiruvchi qismida* sodir etilgan hodisaning qisqacha tafsiloti, jabrlanuvchiga nisbatan jinoyat sodir qilgan shaxsni javobgarlikka tortishni so‘rab shikoyat arizasi berish yoki bermaslik huquqiga ega ekanligi hamda ariza berishdan voz kechgan holatlarda kelib chiqadigan oqibatlar mazmuni tushuntirilganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish bo‘yicha shikoyat arizasini yozishdan voz kechganligidan kelib chiqqan holda mazkur qaror qabul qilinayotganligi o‘z ifodasini topadi. *Qaror qismida* esa, holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilganligi, manfaatdor shaxslarga ma’lum qilinganligi va o‘rnatilgan tartibda prokurorga shikoyat qilishga haqli ekanligi hamda qaror nusxasi ma’lumot uchun prokurorga yuborilishi qayd etiladi.

Yana bir muhim masala shundaki, statistik ma’lumotlar tahlili 2014-yilda JPKning 325-moddasi tartibida rad etilgan ish materiallari ning 75,1 foizi ushbu Kodeksning 83-moddasi (reabilitatsiya uchun asoslar) bilan va faqat 24,9 foizi 84-moddaning birinchi qismi 6-bandiga («ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda

uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno») bilan rad etilganini ko‘rsatadi.

JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan reabilitatsiya qilish asoslarini oqlash asoslari bo‘lib, aybsiz shaxslarning qonunga zid ravishda javobgarlikka tortilmasligini ta’minlash va ularning buzilgan huquqlarini tiklash uchun xizmat qilishini inobatga olganda, mazkur amaliyotni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etib, jabrlanuvchining shikoyati bo‘lmanligi sababli javobgarlikdan ozod bo‘layotgan shaxsni aybsiz deya e’tirof etib bo‘lmaydi. Chunki, mazkur shaxs Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etib, o‘zining ijtimoiy xavflilagini ko‘rsatadi. Bu esa shaxsning «aybsiz» deb topilishi va qonunda belgilangan tartibda oqlanishini inkor etadi.

Sanab o‘tilgan omilarni inobatga olib, surishtiruv va tergov organlari tomonidan jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ish materiallari bo‘yicha JPKning 84-moddasi birinchi qismi 6-bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish amaliyotining yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Militsiya tayanch punkti profilaktika inspektorlari tomonidan xususiy ayblov instituti, ya’ni JPKning 325-moddasi bilan jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad qilinishi talab etiladigan jinoyatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish va qayd etish masalasiga yuqorida keltirilgan tartibdagi yagona yondashuv bu borada ishni samarali tashkil etish bilan birga, shaxs huquq va erkinliklarining ta’minlanishiga xizmat qiladi.

### **III bob**

## **JINOYAT VA HODISALAR HAQIDAGI XABARLARNI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH TARTIBI**

### **3.1. Jinoyat ishi qo'zg'atilishiga sabab bo'ladigan ariza va xabarlar**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 322-mod-dasiga muvofiq, jinoyat ishi qo'zg'atilishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergen xabarlar;
- 3) ommaviy axborot vositalari bergen xabarlar;
- 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o'zi aniqlashi;
- 5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz.

***Shaxslarning arizalari.*** Shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Yozma ariza arz qiluvchi shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Odatda, jinoyat haqida yozma arizalarni jabrlanuvchilar yoki ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, vasiylari) beradilar. Sodir etilgan jinoyat haqida ariza bilan murojaat etayotgan fuqaro jinoyat to'g'risida bila turib yolg'on xabar bergenlik uchun Jinoyat kodeksining 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi hamda buni tasdiqlab imzo chekadi.

Ayrim fuqarolar faqat og'zaki arz bilan cheklanib, yozma ariza bermasliklari mumkin. Bu ularning fuqarolik huquqi sanaladi. Fuqaro jinoyat haqida og'zaki ariza bilan murojaat etsa, bu haqda bayonnomada tuziladi. Bayonnomada arz qiluvchi, uning yashash va ishslash joyi, shuningdek shaxsiy hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim. Agar arz qiluvchi shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsata olmasa, uning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa yo'llar bilan tekshirish (masalan, manzillar byurosidan, shaxs yashaydigan joydagi XCHK va FR bo'limidan anketa ma'lumotlari olish) chorasi ko'rishi kerak. Bayonnomada jinoyatning sodir etilish holatlari xususidagi ma'lumotlar arz qiluvchi nomidan iloji boricha so'zma-so'z aks ettiriladi. Bayonnomani arz qiluvchi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs imzolaydilar.

Qasddan odam o‘ldirishga suiqasd qilish yoki badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatlari sodir etilib, jabrlanuvchi kasalxonaga tushgan hamda shifokorlar uni muloqotga kirisha olmaydi (koma holtida) deb xulosa bergen taqdirda, ariza olish imkon bo‘lmasligi sababli, sodir etilgan holat (fakt) bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi, ya’ni tergovchi yoki surishtiruvchi bildirgi orqali IIB boshlig‘iga axborot beradi va 1-shakl kitobiga qayd qilib, jinoyat ishi qo‘zg‘atish choralarini ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 325-moddasiga muvofiq, Jinoyat kodeksi 105-moddasining birinchi qismida, 109-moddasida, 110-moddasining birinchi qismida, 111-moddasida, 118–119-moddalarining birinchi qismlarida, 121-moddasining birinchi qismida, 136-moddasida, 139–140-moddalarining birinchi va ikkinchi qismlarida, 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi jinoyat ishlari jabrlanuvchining aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab bergen shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan jinoyat turlari bo‘yicha jabrlanuvchi ariza berishdan bosh tortsa, tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilib, tegishli hujjatlar to‘planadi hamda jabrlanuvchining arizasi yo‘qligi sababli JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-band bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etiladi.

Istisno tariqasida jabrlanuvchining nochor ahvolda yoki ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishi qo‘zg‘atishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 167, 170, 172, 173-moddalarida nazarda tutilgan va ustav fondida davlat ulushi bo‘lmaslik yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi ish faqat mazkur yuridik shaxs rahbari, mulkdori yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi. Mazkur to‘rtta jinoyat turi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslik shartlari quyidagilardan iborat:

- a) yuridik shaxsning ustav fondida davlat ulushi bo‘lmasligi;
- b) ushbu jinoyatni yuridik shaxsning xodimi sodir etganligi;

v) yuridik shaxs rahbari, mulkdori yoki vakolatli boshqaruv organi ishni qonuniy hal qilish va aybdorlarni jazolash haqida ariza berishdan bosh tortganligi.

Ushbu shartlar bir vaqtida mavjud bo‘lishi kerak, agar ularidan kamida bittasi aniqlanmasa, jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi.

Yuridik shaxs aksiyadorlik jamiyatidan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday holatda barcha aksiyador shaxslar mustaqil ravishda ariza berishdan bosh tortishlari shart. Agar jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun kamida bitta aksiyador ariza bersa, shuning o‘zi jinoyat ishi qo‘zg‘atishga yetarli bo‘ladi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs noma’lum bo‘lsa va yuridik shaxs vakilining arizasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, tergov harakatlari davomida gumon qilinuvchi shu yuridik shaxsning xodimi bo‘lib chiqsa, vakilning arizani qaytarib olish talabi inobatga olinmaydi, ish oxirigacha tergov qilinadi va sudga oshiriladi.

**Korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergen xabarlar.** O‘zbekiston Respublikasi JPKning 326-moddasiga muvofiq, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning jinoyat to‘g‘risida bergen xabarları xizmat xati yoki tasdiqlangan telefonogramma, telegramma yoxud radiogramma shaklida bo‘lishi lozim. Xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o‘z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkin.

Yuridik shaxslarning qonuniy vakillari jinoyat haqida faqat yozma ariza bilan murojaat qiladilar hamda arizasi tashkilotning shtampi va pechatni bilan tasdiqlanadi. Sodir etilgan jinoyat haqida ariza bilan murojaat etayotgan yuridik shaxslarning vakillari jinoyat to‘g‘risida bila turib yolg‘on xabar bergenlik uchun Jinoyat kodeksining 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladilar.

**Ommaviy axborot vositalari bergen xabarlar.** Muayyan jinoyat to‘g‘risida matbuot, radio va televideniye, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek ommaviy axborot vositalariga yo‘llangan, lekin e’lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘ladi.

Jinoyat to‘g‘risidagi xabarni e’lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek xabar mualliflari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan o‘z ixtiyorlarida bo‘lgan hujjatlar va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart.

**Jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o‘zi aniqlashi.** Jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lishi mumkin:

1) surishtiruvchi xizmat vazifasini bajarayotganida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha surishtiruv o‘tkazish chog‘ida jinoyatga oid ma’lumotlar olganida;

2) tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha dastlabki tergov harakatini amalga oshirish jarayonida jinoyatga oid ma’lumotlar olganida;

3) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish yoki boshqa jinoyatga doir ish bo‘yicha dastlabki tergov olib borish paytida jinoyatga oid ma’lumotlar olganida.

Masalan, tergovchi yurituvdagagi jinoyat ishini tergov qilish jarayonida boshqa mustaqil jinoyat sodir etilganligini aniqlasa, darhol uni ro‘yxatga olish choralarini ko‘rishi shart. Jumladan, bildirgi orqali IIB boshlig‘iga axborot berib, jinoyatni 1-shakl kitobida qayd etadi. JPKning 325-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar bundan mustasno, chunki jinoyatlarni qayd qilib, jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun jabrlanuvchi ariza yozishi kerak.

**Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz** – ariza beruvchining o‘zi sodir etgan jinoyati to‘g‘risida shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasidan va unga ayblov e’lon qilinmasidan oldin bergan xabari.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud og‘zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma’lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi. Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilishdagi holat faqat 1-shakl kitobida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz sabab bo‘lsa, ushbu shaxs bila turib yolg‘on xabar bergenlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilmaydi, ammo JPKda nazarda tutilgan shaxslarning arizalarini qabul qilish va rasmiylashtirish to‘g‘risidagi barcha qoidalar unga ham taalluqlidir.

### **3.2. Jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni shahar-tuman ichki ishlari organlari navbatchilik qismlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi**

Ichki ishlari organlarining navbatchilik qismlari tomonidan ariza va xabarlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va qayd etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi hamda IIVning 1993-yil 5-yanvarda qabul qilgan «*Ichki ishlari organlarida va muassasalarida*

*jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, hisobini yuritish va hal etish tartibini belgilovchi Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi 6-sonli buyrug'i, shuningdek mazkur buyruqqa o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha IIVning 1996-yil 17-iyuldagagi 177-sonli buyrug'i talablari asosida amalga oshiriladi.*

IIB navbatchilik qismlari tomonidan asosan huquqbuzarliklar (ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat) hamda hodisalarga oid ariza va xabarlar qabul qilinadi.

Jinoyat va hodisa haqidagi xabarlar, qayerda va qachon sodir etilishi, shuningdek ma'lumotning to'liqligidan qat'i nazar, ichki ishlar bo'limi, jazoni ijro etish muassasasiga kelib tushishi bilan ichki ishlar organlarida uzlusiz faoliyat ko'rsatuvchi navbatchilik qismi navbatchilari tomonidan qabul qilinishi lozim.

Barcha ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan profilaktika inspektorlari jinoyat haqidagi xabarni ish joyidan tashqarida olganda ham uni qabul qilish choralarini ko'rishlari lozim.

Ichki ishlar organlarining qo'riqlash bo'limi, yong'in xavfsizligi, yo'l harakati xavfsizligi bo'limlari navbatchilari quyidagi hollarda IIB navbatchilik qismlarini zudlik bilan xabardor qilishlari zarur:

- qo'riqlanadigan va o'ta muhim toifalangan obyektlarga o'rnatalgan signalizatsiya vositalari ishlab ketganida;
- har qanday turdagи yong'in sodir bo'lganida;
- fuqarolar o'limi yoki tan jarohati, shuningdek shaxsiy va jamoat mulkiga zarar yetkazilishi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari yuz bergenida.

Bundan tashqari, shahar-tuman IIB navbatchilik qismlariga tibbiyot, ta'lim muassasalari, doimiy yashash joylariga ega bo'limgan fuqarolarni reabilitatsiya qilish muassasalaridan olingan jinoyatga oid xabar va boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham berilishi lozim.

***Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni IIB navbatchilik qismida yuritiladigan kitoblarda qayd etish va hisobotini yuritish tartibi.*** Amaldagi qonunlarga ko'ra, jinoyat to'g'risidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar jabrlanuvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita berilishi mumkin. Bunday ma'lumotlar vakolatli organga berilgan taqdirda «Jinoyat va hodisalar to'g'risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, qayd etish, hisobga olish va hal etish to'g'risidagi yo'riqnomasi» talablariga muvofiq, tegishli jurnallarda qayd etiladi. Ichki ishlar organlariga kelib tushgan har bir jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa

ma'lumotlar 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalida belgilangan tartibda qayd etilib, unga tegishli qayd raqami beriladi, jinoyat to'g'risida qisqacha ma'lumot bayon etiladi.

Agar jinoyat to'g'risidagi xabar ichki ishlar organi navbatchilik qismiga kelib tushsa, navbatchilik qismi navbatchisi xabarni qabul qilib, tergov-tezkor guruhini yuborishdan oldin bu xabarni ro'yxatga olishi shart. Tergov-tezkor guruhi voqeа joyiga chiqishdan oldin navbatchilik qismidan jinoyat haqidagi xabarning ro'yxat raqamini olishi lozim. Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar shahar-tuman ichki ishlar bo'limi navbatchilik qismlarining navbatchilari tomonidan zudlik bilan qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 1993-yil 5-yanvardagi 6-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaga muvofiq, shahar-tuman ichki ishlar bo'limlarida jinoyat haqidagi ariza va shikoyatlar to'g'ridan-to'g'ri 1-shakl kitobida qayd etilishi, shuningdek 2-shakl jurnaliga qayd etilgan materiallar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan hollarda bu materiallar tegishli tartibda 1-shakl kitobiga o'tkazilishi lozim.

Yo'riqnomada talablariga asosan:

*1-shakl kitobida* qilmishning jinoyat ekanligini ko'rsatuvchi ariza va xabarlar to'g'ridan-to'g'ri qayd etiladi.

*2-shakl jurnalida* esa jinoyat ekanligini tekshirib ko'rish talab etiladigan xabarlar, jumladan telefon, telegraf, qo'riqlov signalizatsiyasi ishlab ketganligi va jinoyat haqidagi boshqa xabarlar qayd etiladi.

Yo'riqnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan telefon, telefaks, telegraf, teleradio orqali tushgan xabarlar, davolash muassasalaridan tan jarohati bo'yicha tushgan xabarlar, XCHK va FRB bo'limlariga pasport yo'qolganligi bo'yicha tushgan shubhali xabarlar, YHXB xodimlarining yo'l-transport hodisasi va uning oqibatlari bo'yicha, ro'yxatlash-imtihonlash bo'limining fuqarolar tomonidan texnik pasport va haydov-chilik guvohnomalarining shubhali ravishda yo'qotilganligi bo'yicha, qo'riqlash bo'limi qo'riqlov signalizatsiyasining ishlab ketishi haqida, YOXBlarining yong'inlar bo'yicha matbuotda chop etilgan xat, maqola, xabarlar, davlat sug'urta kompaniyalarining qonun buzilishi bo'yicha murojaatlari, jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan barcha xabarlar, epizootiya, favqulodda holat, ommaviy tartibsizliklar, baxtsiz hodisalar hamda IIB xodimlarining jinoyat haqidagi bildirigilari *2-shakl jurnalida* qayd etiladi.

Yo'riqnomaning 3.3-bandi talablariga asosan, 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali qat'iy belgilangan tartibda yuritiladi. Navbatchilik

qismining 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalni faqatgina shahar-tuman IIB navbatchilik qismi navbatchisi yoki ularning yordamchilari tomonidan to‘ldiriladi hamda shahar-tuman IIB navbatchilik qismlarida saqlanishi shart. Jinoyatga oid ariza, xabar va hodisalar to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar IIB navbatchilari tomonidan Yo‘riqnomalablariga muvofiq zudlik bilan qayd etilishi talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 17-iyuldaggi 177-sonli buyrug‘i talablariga ko‘ra, 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalni doimiy saqlanadi.

Yo‘riqnomaning 3.4-bandiga muvofiq, agar sodir bo‘lgan voqeahodisani mohiyatiga ko‘ra hal etish ichki ishlar organlariga tegishli bo‘lmasa (JPKning 345-moddasi) yoki hududiy jihatdan boshqa shahar-tuman IIBga tegishliligi aniqlansa (JPKning 346-moddasi), tegishli tartibda 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga ro‘yxatga olingach, bu borada kitob yoki jurnalga belgi qo‘ygan holda tegishli shahar-tuman IIB navbatchisi bilan bog‘lanib, bu haqda darhol xabar qilinishi, ularda mavjud bo‘lgan kitob va jurnalda qayd etilishi, qayd qilinganlik tartib raqami olinishi va ular tomonidan jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etish choralari ko‘rilmuniga qadar hodisa joyidagi jinoyat izlari saqlanishini ta’minlash choralari ko‘riliishi lozim.

Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisa to‘g‘risidagi ma’lumot ayrim sabablarga ko‘ra kechroq qabul qilinganda (masalan, hududiy profilaktika inspektorida relyefning noqulayligi sababli xabarni o‘z vaqtida uzatish imkonini bo‘lmagan taqdirda) 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining 2-ustunida jinoyat yoki hodisaning aniq sodir etilgan va kelib tushgan vaqtini (soati) ko‘rsatiladi.

Agar ichki ishlar organlariga kelib tushgan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar yolg‘on bo‘lsa, tasdiqlanmasa yoki boshqa holatlarda natijasi bo‘yicha 2-shakl jurnaliga tegishli yozuv kiritilib, qaror qabul qilgan xodim tomonidan imzolanishi lozim.

Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalida ma’lumotlarni qayd etishda ko‘rsatiladigan rekvizitlar to‘liq va aniq to‘ldirilishi, jinoyat va hodisaning sodir etilgan joyi, vaqtini, uni sodir etgan shaxs, xabar qay tarzda kelib tushganligi, voqealoyiga chiqqan tergov-tezkor guruhi xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumot, voqealoyiga haqida kim tomonidan va qay holatda xabar qilinganligi to‘g‘risida qisqa va aniq ma’lumotlar, shuningdek hujjat ijrosi kimga yuklatilganligi va qanday chora ko‘rilmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritilishi talab etiladi.

Bundan tashqari, 1-shakl kitobi ham 2-shakl jurnaliga tergov-tezkor guruhi tarkibida voqealoyiga chiqqan ekspert, kinolog va boshqa

mutaxassislar, shuningdek voqeа joyidan olingan izlar, daliliy ashyolar, kinologning xizmat iti to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham yozib qo‘yiladi.

Jinoyatga oid ariza va xabarlar, hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yozma ravishda kelib tushganda mazkur arizaga ichki ishlar organi navbatchilik qismining shtampi qo‘yilib, unda qabul qilingan sana, qayd raqami, navbatchining ismi sharifi yoziladi va u tomonidan imzolanadi.

Jinoyatga oid ariza va boshqa xabarlarni qayd etish bo‘yicha 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining yuritilishi uchun javobgarlik shaxsan shahar-tuman IIB boshlig‘i va navbatchi inspektor zimmasiga yuklatiladi.

Jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarning ro‘yxatga olinishi bo‘yicha kunlik nazorat bevosita ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i va tashkiliy inspektorlik bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois har kuni tezkor navbatchi sutka davomida tezkor vaziyat to‘g‘risida IIB boshlig‘iga ma’lumot berib boradi. IIB boshlig‘i 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnallarining to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshiradi, bu haqda o‘z fikrini bildiradi va imzo qo‘yadi, hal etilmagan materiallar bo‘yicha tegishli sohaviy xizmat rahbarlariga topshiriqlar beradi.

Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnalida qayd etilmagan ariza va xabarlarni ijro etish yuzasidan topshiriqlar berish qat’iyan man etiladi.

Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnalida qayd etilgan ariza va xabarlar yuzasidan qonuniy choralar ko‘rilganligi to‘g‘-risidagi ma’lumotlar ushbu kitoblarning oxirgi ustunida qayd etiladi va hisob-qayd qilish inspektori tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib boriladi. Har oyning yakunida jinoyatlar haqidagi xabarlarni ro‘yxatga olish va ularga nisbatan ko‘rilgan choralar (jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi, rad etilganligi) bo‘yicha prokuratura va ichki ishlar organlari hamda Axborot markazi bilan taqqoslash-solishtiruv ishlari olib boriladi.

Yuqorida qayd etilgan O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1993-yil 5-yanvarda qabul qilgan «Ichki ishlar organlarida va muassasalarida jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, hisobini yuritish va hal etish tartibini belgilovchi Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida»gi 6-sonli buyrug‘iga muvofiq, har bir IIBda maxsus komissiyalar tuziladi. Komissiyaga IIB boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari raislik qiladi, sohaviy xizmatlar boshliqlari yoki ularning o‘rinbosarlari esa a’zo sanaladi. Komissiya a’zolari har oyda tuman-shahar hududida joylashgan korxona, muassasa, tashkilot,

o‘quv yurtlari va boshqalardan jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligi haqida ma’lumot yig‘ib, hisob-qayd qilish inspektoriga topshiradilar.

### **3.3. Bir necha jinoyatlar hamda bir guruuh shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilganida ro‘yxatga olish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1998-yil 5-yanvarda qabul qilgan «Yo‘riqnomalarni tasdiqlash haqida»gi 2-sonli buyrug‘ining 2-ilovasi 5-bandni *birinchi xatboshisi* talablariga muvofiq, quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish ***bitta (yagona) jinoyat sifatida hisobga olinadi***:

1) guruuh bo‘lib jinoyat sodir etish (JKning 28-moddasida nazarda tutilgan ishtirokchilikning barcha turlari). Bunday holatda barcha guruuh a’zolari uchun bitta 1-shakl statistik kartochka to‘ldiriladi. Har bir ishtirokchiga alohida kartochka to‘ldirish talab etilmaydi, masalan, bir guruuh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib o‘g‘rilik jinoyatini sodir etishda;

2) bitta jinoiy qilmish natijasida bir-necha shaxslar jabrlanuvchi bo‘lgan taqdirda ham faqat bitta jinoyat sifatida 1-shakl statistik kartochka to‘ldiriladi. Masalan, mehmonxonadan bir necha shaxsning mulklarini o‘g‘irlash yoki daladan turli shaxslarga tegishli mollarni o‘g‘irlash va boshqalar;

3) yagona qasd bilan qamrab olingan bir turdagagi jinoiy harakatlarni ketma-ket sodir etish. Har biri alohida olinganda kam ahamiyatli qilmish bo‘lib, ularning jamlanmasi jamiyat uchun xavfli hisoblansa, bitta jinoyat sifatida hisobga olinib, kartochka to‘ldiriladi. Masalan, bir mahallada bir nechta xonadonga kirib, firibgarlik yo‘li bilan (masalan, o‘zini soliq xodimi deb tanishtirib) har bir xonadondan oz miqdorda pullarni yig‘ib chiqish. Agar har bir xonadondan ancha miqdorda va undan ko‘p pul olinsa, har biri alohida jinoyat sifatida hisobga olinadi;

4) ideal jinoyatlar majmui sodir etilsa, faqat ularning og‘irrog‘iga kartochka to‘ldiriladi. Masalan, nomusga tegish vaqtida tanosil kasalini yuqtirgan bo‘lsa, faqat nomusga tegishga kartochka to‘ldirilib, hisobga olinadi;

5) uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar, muddatidan qat’i nazar, bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi. Masalan, o‘qotar qurolni bir yil saqlash, giyohvandlik moddasini ikki yil saqlash, uch yil aliment to‘lamasdan qochib yurish va boshqalar;

6) davomli (takroriy harakatlar bilan sodir etiladigan) jinoyat uchun bitta 1-shakl statistik kartochka to‘ldiriladi. Masalan, bitta shaxsni

bir oy davomida qiyash yoki nomusga tegish jinoyatida bitta jabrlanuvchi bilan ikki yoki undan ko‘p marta jinsiy aloqa qilish;

7) ayrim mulkiy va mansabdorlik jinoyatlari, jumladan o‘zgalar mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, pora olish, valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash. Bu toifadagi jinoyatlar, epizodlar (turdosh harakatlar) sonidan qat’i nazar, bitta jinoyat sifatida hisobga olinadi. Masalan, ombor mudiri davlat mulkini o‘zlashtirish maqsadida uyiga bir oyda uch marta turli kunlarda narsalarni olib ketsa, bitta jinoyat kabi kvalifikatsiya qilinadi va bitta 1-shakl statistik kartochka to‘ldiriladi. Agar ushbu jinoyatlar turdosh bo‘lmagan holatda, ya’ni real jinoyatlar majmui kabi sodir etilsa (masalan, pora olish va o‘zgalar mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish), har biri alohida jinoyat sifatida hisobga olinadi;

8) bir necha jinoiy qilmish qonunda yagona jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinsa, yagona jinoyat kabi hisobga olinadi. Masalan, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatib bezorilik qilish yoki bosqinchilikda o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish va badanga shikast yetkazish;

9) ikkita obyektga zarar yetkazilishiga qaramasdan, qonunda bitta jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadigan jinoyatlar. Masalan, bosqinchilik jinoyatida ham mulkka, ham jabrlanuvching sog‘lig‘iga tajovuz qilinadi. Ammo bitta shaxs tomonidan sodir etilgan bir nechta bosqinchilik jinoyatining har biriga alohida-alohida kartochka to‘ldirilib, hisobga olinadi;

10) ayrim ko‘p epizodli jinoyatlar uchun bitta 1-shakl statistik kartochka to‘ldiriladi, masalan o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, besoqolbozlik, fohishaxona saqlash yoki qo‘shma-chilik qilish.

Yuqoridagi buyruqning 2-ilovasi 5-bandi *ikkinci xatboshisi* talablariga muvofiq, quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish ***ikki yoki undan ortiq jinoyat sifatida*** hisobga olinadi va har biriga alohida kartochka to‘ldiriladi:

– bir vaqtida turli jinoyatlarni sodir etish. Masalan, bosqinchilik vaqtida qasddan odam o‘ldirish, nomusga tegib, so‘ng jabrlanuvchini qasddan o‘ldirish, o‘g‘rilik sodir etish va jinoyat izini yo‘qotish maqsadida uyga o‘t qo‘yish va boshqalar;

– bir shaxs tomonidan turli vaqtarda jinoyat sodir etish. Masalan, qasddan odam o‘ldirish jinoyati tergov qilinayotgan vaqtida oldin shu shaxs tomonidan bosqinchilik jinoyati sodir etilganligi aniqlansa;

– ikki shaxs tomonidan til biriktirmay bir vaqtida sodir etilgan jinoyatlar har bir shaxs uchun alohida hisobga olinadi. Masalan, to‘yda ikkita qizni ikki yigit chaqirib, dala tomonga boshlab borib, ularning nomusiga tegishlari yoki qorovul yo‘qligidan foydalanib, g‘alla xirmonidan ikki shaxs o‘z qopiga g‘alla to‘ldirib o‘g‘irlik qilishi va boshqalar;

– tan jarohati yetkazishda qarama-qarshi tomonlarga jismoniy zarar yetkazish. Masalan, ikki shaxs o‘zaro urishib, bir-biriga o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazganida har birining qilmishi Jinoyat kodeksining 105-moddasi bo‘yicha alohida-alohida hisobga olinadi.

Ayrim holatlarda jinoyat sodir etgan shaxs qasdining mazmunidan kelib chiqib, jinoyat yagona yoki bir nechta jinoyat sifatida hisobga olinadi va kartochka to‘ldiriladi. Masalan, shaxs to‘rt kishini o‘ldirishni qasd qilib, navbatma-navbat ularni o‘ldirsa, Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi «a» bandi bilan bitta jinoyat kabi kvalifikatsiya qilinib, kartochka to‘ldiriladi. Agar qasd bitta shaxsga qaratilib, uni o‘ldirgandan so‘ng ikkinchi shaxsni o‘ldirish qasdi paydo bo‘lsa va u amalga oshirilsa, Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi «r» bandi bilan «takroran qasddan odam o‘ldirish» sifatida kvalifikatsiya qilinadi va har bir holat uchun alohida-alohida kartochka to‘ldirilib, hisobga olinadi.

IIVning «Yo‘riqnomalarni tasdiqlash haqida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 2-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi 8-bandiga talablariga muvofiq, tergov jarayonida boshqa jinoyat sodir etilganligi aniqlansa, 1-shakldagi statistik kartochka to‘ldiriladi. Masalan, JKning 276-moddasiga muvofiq giyohvandlik moddasini saqlash jinoyati tergov qilinayotganda, ayblanuvchi ushbu moddalarni bozorda «Leyla» ismli lo‘li ayoldan sotib olganini aytса, ushbu aniqlangan yangi holatga JKning 273-moddasi bo‘yicha 1-shakldagi statistik kartochka to‘ldiriladi. Demak, ushbu buyruq talablaridan kelib chiqib, surishtiruv yoki dastlabki tergov davomida aniqlangan yangi jinoiy holat bo‘yicha – uning qachon sodir etilgani, sodir etgan shaxslar aniqlangan yoki aniqlanmaganidan qat’i nazar – 1-shakldagi aniqlangan jinoyatni hisobga olish kartochkasi to‘ldiriladi. Agar tergovchi tergov qilinayotgan jinoyatdan tashqari boshqa jinoyat tarkibini aniqlab, uni shu jinoyat ishiga qo‘shib tergov qilsa, IIVning «Yo‘riqnomalarni tasdiqlash haqida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 2-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi 8-bandiga uchinchi xatboshisiga muvofiq, yangi jinoyat bo‘yicha to‘ldirilgan 1-shakl kartochkalar qo‘sishimcha hisoblanadi.

Qo‘sishimcha kartochkalar quyidagi hollarda to‘ldiriladi:

1) tergov qilinayotgan jinoyat ishiga boshqa jinoyat ishi yoki muqaddam ro‘yxatga olinmagan jinoyat haqidagi materiallar qo‘shilganda;

2) ro‘yxatga olingan jinoyat bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishni yuritish davomida avval ro‘yxatga olinmagan jinoyat aniqlansa va asosiy jinoyat ishi tarkibida tergov qilinsa;

3) muqaddam jinoyatni hisobdan chiqarish bilan harakatdan to‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha tergov qayta boshlansa;

4) jinoyat ishini tergov qilish jarayonida jinoyat yengil turdan og‘irroq turga yoki aksincha qayta kvalifikatsiya qilinganda;

5) sodir etilgan jinoyat oqibatida halok bo‘lgan shaxslar sonini aniqlashtirish maqsadida (agar jabrlanuvchilardan ba’zilari jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng tergov olib borish jarayonida vafot etsa).

Agar jinoyat ishining bir qismi jinoyat fakti bo‘yicha alohida jinoyat ishi qilib yurituvga ajratilsa, unda yangi jinoyat ishi keyingi tartib raqamini oladi va jinoyat ro‘yxatga olinib, hisobot davrida aniqlangan jinoyat bo‘lib hisobdan o‘tadi.

Agar jinoyat ishining bir qismi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ajratilsa, bunday holda ham yangi jinoyat ishi keyingi tartib raqamini oladi, lekin jinoyat sifatida ro‘yxatga olinmaydi va hisobotga jinoyat sifatida qo‘shilmaydi, faqat bu to‘g‘risida jinoyatlarni hisobga olish jurnalida hamda kartochkalarda «Shaxsga nisbatan ajratilgan» degan belgi qo‘yiladi.

IIVning «Yo‘riqnomalarni tasdiqlash haqida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 2-sonli buyrug‘ining 2-ilovasi 6-bandi talablariga muvofiq, quyidagi holatlar jinoyat sifatida hisobga olinmaydi:

1) ma’muriy javobgarlikka tortilishi shart etib belgilangan qilmishni birinchi marotaba sodir etish;

2) Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning barcha alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi (JKning 36-moddasi) sababli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi va hisobga olish kartochkasi to‘ldirilmaydi.

### **3.4. Jinoyat haqida xabar kelib tushganida amalga oshiriladigan dastlabki harakatlar**

Odatda, jinoyat sodir etilgani haqidagi ariza va xabarlar ichki ishlar organlarining navbatchilik qismiga kelib tushadi. Navbatchi esa darhol

ariza (xabar) haqida IIB boshlig‘i va tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi)ga axborot beradi.

Tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi) xabarni olgach, tergov-tezkor guruhi a’zolarining zudlik bilan to‘planishini ta’minlaydi va hodisa sodir bo‘lgan joyga chiqishga shayligini yana bir bor tekshirib ko‘radi. Xususan, tergov-tezkor guruhi a’zolarining barchasi to‘planganligiga, tergov chemodanidagi jihozlarning to‘liqligiga, shuningdek o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan vositalarning mavjudligiga, texnika va transport vositalarining hodisa sodir bo‘lgan joyga chiqishga hozirligiga e’tiborini qaratadi. Kam-chiliklar aniqlangan holatlarda shaxsan o‘zi yoki tezkor navbatchi yordamida ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi, tezkor navbatchidan xabarning 2-shakl jurnalda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tartib raqamini oladi va tergov-tezkor guruhini hodisa sodir bo‘lgan joyga tezda yetib borishini ta’minlaydi. Hodisa sodir bo‘lgan joyga yetib borgach, tergov-tezkor guruhi a’zolari, ya’ni tezkor vakil, profilaktika inspektori, EKB mutaxassisasi va inspektor-kinologga sodir etilgan hodisaning mazmunidan kelib chiqib vazifalar qo‘yadi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida navbatchi tergov-tezkor guruhining hodisa sodir bo‘lgan joyda amalga oshiradigan ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Guruhning hodisa sodir bo‘lgan joydagi harakatlari, birinchi navbatda, ish bo‘yicha jinoyat belgilari va izlarni, jinoyatchi shaxslarning o‘ziga xos belgilarini, guvohlar va daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan dastlabki tergov-tezkor choralar majmuni o‘zida aks ettirishi kerak. Tergov-tezkor guruhining har bir a’zosi hodisa joyida o‘zi amalga oshirishi lozim bo‘lgan harakatlarni aniq bilishi muhim.

Tergov-tezkor guruhi hodisa joyiga kelganidan so‘ng, guruh rahbari sifatida tergovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- hodisa joyi qo‘riqlanayotganligini tekshirishi, agar qo‘riqlanmayotgan bo‘lsa, profilaktika inspektoriga qo‘riqlashni topshirishi;
- agar jabrlanuvchilar tibbiy yordamga muhtoj bo‘lsa, yordam ko‘rsatishi, ular tibbiyot muassasasiga yuborilgan bo‘lsa, qayerga jo‘natilganligini yozib olishi;
- hodisa joyiga birinchi bo‘lib inspektor-kinologni xizmat iti bilan kiritishi va jinoyatni fosh etish hamda jinoyatchini «issiq izi»dan qo‘lga olishni tashkillashtirishi;
- tezkor-qidiruv xodimiga guvohlarni, jinoyat sodir qilgan shaxslarni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar berishi;

– mutaxassis-kriminalistga jinoyat izlarini, ya’ni jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, qo‘l, oyoq va boshqa izlarni (tartibsizlik, har tomonga otilgan buyumlar, yuklar, uzilgan tugmalar, soch tolalari, qon va boshqalar), jinoyatchilarga taalluqli buyum va narsalar, mikroobyektlarni topishni topshiradi;

– hodisa joyidagi holat bilan tanishadi, ko‘zdan kechirishning taktik usullarini belgilaydi;

– hodisa joyini ko‘zdan kechirishga kirishadi.

Jinoyat sodir etilgan joy tergov qilinayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning manbai hisoblanadi, shu sababli uni zudlik bilan tekshirish lozim, chunki hodisa sodir bo‘lgan joyni o‘z vaqtida ko‘zdan kechirmaslik izlar va boshqa dalillarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘zdan kechirishda amalga oshiriladigan asosiy vazifalar quyida-gilardan iborat:

– jinoyat sodir etilgan joyning holatini aniqlash;

– tergov uchun ahamiyat kasb etadigan narsa va izlarni aniqlash, qayd qilish va olish;

– tergov va qidiruv tusmollari tuzish;

– isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlash;

– jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etuvchi ma’lumotlarni to‘plash.

Hodisa joyida aniqlangan va olingan izlar hamda narsalarni ko‘zdan kechirish jinoyat sodir etish usulini aniqlash imkonini beradi. Bu esa jinoyat sodir etish usuli hamda ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha kartotekalardan foydalanishni taqozo etadi.

Ko‘zdan kechirishni talab darajasida va samarali o‘tkazish kriminalistik texnika vositalaridan unumli foydalanishga bog‘liq, ayniqsa video-yozuv usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu dalillarni aniqlash jarayoniga, ko‘zdan kechirish harakatlari natijasida olingan ashyoviy dalillar obyektiv qayd etilishiga, shuningdek qo‘llanilgan taktik usullarning to‘g‘ri ekanligini yaqqol namoyish etishga xizmat qiladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish natijalari bo‘yicha tergovchi JPKning 90–92, 135–141-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq bayonnomada tuzadi. Bayonnomada ko‘zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar qanday tartibda ko‘zdan kechirilgan bo‘lsa, xuddi shu tartibda, ko‘zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo‘lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko‘zdan kechirish chog‘ida topilgan va olingan barcha izlar, narsa va hujjatlar sanab o‘tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma’lumotnomasi yoki bayonnomaning nusxasi

beriladi. Bundan tashqari, bayonnomada: ko‘zdan kechirish qaysi vaqtida, qanday ob-havoda va qanday yorug‘likda o‘tkazilganligi; qanday ilmiy-texnik vositalar qo‘llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko‘zdan kechirishda ko‘maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko‘maklashish nimada o‘z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda va qaysi muhr bilan muhrlanganligi; ko‘zdan kechirilganidan keyin ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalarning qayerga yuborilganligi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Sodir etilgan, sodir etilayotgan yoki tayyorgarlik ko‘rilayotgan jinoyat haqidagi xabar kim tomonidan (jismoniy va yuridik shaxslar, ommaviy axborot vositalari yoki korxona, tashkilot muassasalardan) kelib tushishidan qat’i nazar, xabar berilgan holat tasdiqlanganidan so‘ng, JPKning 328-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi hamda tergov harakatlarini o‘tkazish tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasiga muvofiq, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar ro‘yxatga olinishi bilan *darhol*, jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sababning qonuniyligi va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo‘lgan taqdirda esa, *o‘n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim*. Ushbu muddat jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar olingan paytdan boshlab to ishni qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari ushbu Kodeksning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi.

Ushbu muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, qo‘shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish va ekspertiza o‘tkazish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish man qilinadi.

Alovida hollarda, ya’ni tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi yoki tergovchingning asoslantirilgan qaroriga ko‘ra prokuror tomonidan *bir oygacha uzaytirilishi mumkin*:

1) o‘tkazish ko‘p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, hujjatli taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo‘lsa;

2) olis joylarda bo‘lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo‘lishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo‘lsa;

3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmsadan turib qaror qabul qilish imkoni bo'lmasa.

Demak, tergovga qadar tekshiruv bosqichining muddati o'n sutkagacha etib belgilangan bo'lib, alohida holatlarda ushbu muddat prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi ham mumkin va bu muddat bir vaqtning o'zida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish muddatini ham o'zida ifodalaydi.

Ushbu muddat tugashi bilan tergovchi yoki surishtiruvchi JPKning 330-moddasiga muvofiq, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida;
- 2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishligiga qarab yuborish haqida.

### **3.5. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish. Ma'muriy, intizomiy va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar bo'yicha ko'rildigian choralar**

Jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asoslar mavjud bo'lмаган тақдирда, shuningdek ish yuritishni istisno etuvchi holatlar (JPK 83-m. 1 va 2-bandlari hamda 84-m. 1, 3-7-bandalari) aniqlanganida, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim.

JPK 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) nazarda tutilgan holat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, sudning ajrimi asosida amalga oshiriladi.

JPKning 83-moddasiga muvofiq, quyidagi holatlarda jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi lozim:

- 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;
- 2) qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa.

JPKning 84-moddasiga muvofiq ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun kuyidagilar asos bo'ladi:

1) shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o‘tganligi (JKning 64-moddasi);

2) e’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa;

3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo‘lsa;

4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo‘yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo‘lsa;

5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo‘yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo‘lsa;

6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan bo‘lsa;

8) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Kelib tushgan xabarda jinoyat haqida emas, balki ma’muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoxud axloq normalari buzilganligi haqida ma’lumot bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqbuzarga nisbatan ma’muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta’sir choralarini qo‘llash uchun u ishlaydigan yoki o‘qiydigan joy ma’muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasi yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

Kelib tushgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnatga, uy-joyga oid, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek korxona, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarining fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida qo‘riqlanadigan qonuniy manfaatlari buzilganligi ko‘zga tashlansa, unda ishni qo‘zg‘atishni rad qilish bilan bir vaqtda

manfaatdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atishning rad qilinganligi haqida ariza yoki xabar bergen shaxs, muassasa, korxona yoki jamoat tashkiloti xabardor qilinadi va ularga ushbu qaror yuzasidan shikoyat qilish huquqlari tushuntirib beriladi.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atish va tergov o‘tkazilishi lozim bo‘lgan jinoiy hodisa yuz bermaganligi, jinoyat tarkibi bo‘lmaganligi, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati (JKning 64-moddasi) o‘tganligi aniqlangan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Bu haqda jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida xabar bergen fuqaro, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim (JPK 333-m.).

Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish ham xuddi jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi qaror singari kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Unda jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qiluvchi asoslantirilgan aniq ma’lumotlar keltiriladi.

Ish yuritishni inkor etuvchi holatlar mavjudligi tufayli jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qarorga tergovchi tegishli shaxsning harakatlarida huquq buzilishi yoki axloqqa zid harakat belgilari borligi hamda ish materialini jamoat birlashmasi, jamoada ko‘rib chiqish yoki intizomiy yoxud ma’muriy tartibda hal etish uchun yuborish haqida ko‘rsatma kiritishga haqlidir.

Agar jinoyat ishini qo‘zg‘atish shaxs jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganligi tufayli rad etilgan bo‘lsa, materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanadigan komissiyaga yuborilishi mumkin.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilgan taqdirda, manfaatdor shaxslar va muassasalarga zararni undirish tartibi ham tushuntiriladi, olib qo‘yilgan jinoyat qurollari, muomalaga kiritish taqiqlangan buyumlarga nisbatan choralar haqida qaror qabul qilinadi.

### **3.6. Poraxo‘rlik jinoyatlari haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlari**

Fuqarolarning jinoyat bilan bog‘liq arizalari sodir etilgan qilmishni qonun doirasida hal qilish uchun qabul qilinadi. Biroq, fuqaroning

murojaatlari qonunchilikni tiklash emas, balki kimdandir o‘ch olish, hasadgo‘ylik, ko‘rolmaslik, o‘zaro adovat zamirida bo‘lsa, bunday murojaatniadolatli deb atash noo‘rin bo‘ladi. Agar bu kabi murojaat shaxsni jinoyat sodir etishda, aytaylik, pora olganlikda ayblab qilingan bo‘lsa va tuhmatdan iborat ariza bilan murojaat etgan shaxslarning qilmishi jazosiz qolib ketsa, jamiyatda huquq-tartibot idoralariga ishonchsizlik kayfiyati paydo bo‘ladi, mamlakat qonunchiligi bilan mustahkamlab qo‘yilgan odillik, insonparvarlik,adolat prinsiplarining buzilishiga olib keladi.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borila-yotgan islohotlar asosan mansabdor shaxslarning pora olishi bilan bog‘-liq jinoyatlarni aniqlash va ularning qonun oldidagi javobgarligini ta‘min-lashga qaratilgan bo‘lib, ilgari ko‘p holatlarda pora berish jinoyatini sodir etayotganlar va pora olish-berishda vositachilik qiluvchilarning jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish holatlari kuzatilar edi.

Qonunchilikdagi ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida 2014-yil 14-mayda «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi va amaldagi Jinoyat kodeksining 211–212-moddalariga yangi qoidalar kiritildi. Jumladan, ushbu moddalarning rag‘batlantiruvchi qismi talab-lari kuchaytirildi, ya’ni Jinoyat kodeksining 211-moddasi to‘rtinchiqismiga muvofiq, «basharti, shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergen bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi», shuningdek ushbu Kodeksning 212-moddasi to‘rtinchiqismiga ko‘ra, «basharti, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergen bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi».

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish bo‘yicha qilingan murojaatlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 2004-yil 24-sentabr qarori talablaridan kelib chiqib aniq dalil va isbotlar keltirilgan holda, ushbu qonunchilikka kiritilgan javobgarlikdan ozod qilish normalari qo‘llanilishi lozim. Og‘zaki aytilgan yoki ikki-uch

fuqaroning o‘zaro kelishib mansabdor shaxsga qilgan pora olishga nisbatan og‘zaki tuhmati jinoyat ishi qo‘zg‘atishga asos bo‘lmaydi.

So‘z yuritilayotgan jinoyat borasida kiritilgan o‘zgartishlar bir qator huquqiy shartlarni qo‘ygan hamda ushbu shartlarning barchasi mavjud bo‘lgan taqdirda pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilgan hamda pora oluvchini ayblab ariza yozgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Jinoyat kodeksi 211–212-moddalarining to‘rtinchi qismlariga muvofiq, pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxslar quyidagi shartlar mavjud bo‘lganida JPK 84-moddasi birinchi qismining 8-bandi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi:

*1. Shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa* (ushbu shart faqat 211-moddaga taalluqli).

Tovlamachilik yo‘li bilan pora so‘rash deganda mansabdor shaxs tomonidan fuqaro (uning yaqin qarindoshlari)ning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan harakatlarni mansab lavozimidan foydalanib sodir etish tahdidi bilan pora talab qilishi, shuningdek fuqaroning qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan oqibatlarning oldini olish uchun pora berishga majbur etadigan sharoitga bila turib solib qo‘yish tushuniladi.

Agar pora berish jinoyatini tergov qilish jarayonida tovlamachilik belgilari aniqlanmasa, arizadagi vajlar aniq dalillar bilan isbotlanmasa, pora bergen shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxsning qilmishi tahlil qilinib, huquqiy baholanayotganda hamda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi hal etilayotganda, o‘zi vositachilik qilgan jinoyatda pora-ning tovlamachilik bilan talab qilinganligi yoki qilinmaganligi ahamiyat kasb etmaydi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 212-moddasi to‘rtinchi qismida tovlamachilik qilish jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning zaruriy belgisi sifatida ko‘rsatilmagan.

*2. Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati amalda sodir etilgan bo‘lishi shart.*

Ushbu shart shaxsni amalda jinoyat to‘la sodir etilganidan so‘ng huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ariza bilan murojaat qilishini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, ariza bilan murojaat etgan shaxsga nisbatan JPKning 84-moddasi birinchi qismi 8-bandi (Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilish) qo‘llanilib, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar shaxs o‘zi pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishni sodir etmagan, ammo boshqa shaxslar uni ushbu harakatlarni sodir etishga majburlayotgan bo‘lsa, bu holat yuzasidan ariza bilan murojaat etsa, qilmishida jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli, JPKning 83-moddasi 2-bandis asosida unga nisbatan jinoyat ishi tugatiladi.

*3. Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishni sodir etgan shaxs bu haqda 30 sutka ichida huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga xabar berishi shart.*

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishga doir ariza bilan murojaat etish muddati, JPKning 314-moddasi talablariga rioya qilgan holda, qilmish sodir etilgan kunning ertasidan boshlab hisoblana-di. Muddatga dam olish va bayram kunlari ham kiradi. Muddat tugashi arizani qabul qilayotgan idoraning ish vaqtini tamom bo‘lishi bilan tugaydi. Mabodo muddatning oxirgi kuni dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, muddat bayram yoki dam olishdan keyingi birinchi ish kunida tugaydi.

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi uchun ushbu muddat ichida ariza bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga murojaat etishi shart. Ushbu muddat o‘tib ketgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Amaliyotda porani bo‘lib-bo‘lib berish holatlari ko‘p uchraydi. Bunday paytda muddatni hisoblash poraning birinchi qismi berilgan sananing ertasidan boshlanadi va o‘ttiz kun hisoblanadi. Bunda poraning keyingi qismlari berilgan yoki berilmaganligi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga ta’sir etmaydi.

Agar pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlari takroran sodir etilgan bo‘lsa, har bir jinoyat uchun muddatni hisoblash alohida belgilanadi.

*4. Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilinganligi haqida xabar berish ixtiyoriy bo‘lishi shart.*

Ixtiyoriy xabar berish deganda shaxs huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ma’lum bo‘lmagan pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishda qatnashganligi haqida shaxsan o‘zi kelib yozma yoki og‘zaki xabar berishi tushuniladi. Ixtiyorilik tashqi kuchlar (ariza berishga yoki qilmishidan pushaymon bo‘lishga ruhiy-jismoniy majbur-lash) ta’siridan xoli bo‘lishi shart.

Quyidagi holatlar xabar berishning ixtiyoriyligini istisno qiladi va Jinoyat kodeksining 211–212-moddalari to‘rtinchi qismini qo‘llashga asos bo‘lmaydi:

– huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan tergov yoki surishtiruv vaqtida aniqlangan, shuningdek ularga oldindan ma’lum bo‘lgan pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarini sodir etgan shaxsning bu haqda ariza berishi;

– jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov yoki surishtiruvga jalb qilingan shaxslar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, tarjimon, himoyachi)ning pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishda qatnashganligi haqida ariza berishi;

– huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga majburan keltirilgan shaxsning pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishda qatnashganligi to‘g‘risida ariza berishi.

Ariza faqat ixtiyoriy hamda tergov va surishtiruv idoralariga ma’lum bo‘lmagan holat bo‘yicha qabul qilinganda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga olib keluvchi shartlarning biriga rioya etilgan hisoblanadi.

#### *5. Qilmishiga chin ko ‘ngildan pushaymon bo ‘lishi.*

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatida qatnashgan shaxs o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Jumladan, o‘z ixtiyorri bilan arz qilganligi, uning xavfli qilmish ekanligiga ko‘zi yetib, boshqa bu kabi jinoiy qilmishlarni sodir etmaslikka ahd qilganligi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan samimiyl munosabatda bo‘lib, sodir etilgan jinoyatning boshqa dalil-isbotlarini topishda ko‘maklashganligi, tergov va suddan yashirinmaganligi, aytilgan vaqtida tergov harakatlarini o‘tkazishga yetib kelganligi (uzrli sabablar bundan mustasno) va boshqalar.

#### *6. O‘zi qatnashgan pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini ochishda faol qatnashishi shart.*

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarini ochishda faol qatnashganlik ham bir qator omillar bilan belgilanadi. Jumladan, jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi ashyolar, qo‘sishimcha dalillarni ixtiyoriy ravishda taqdim etishi, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini aytib berishi, tergov jarayonida o‘tkaziladigan harakatlarda faol qatnashishi, berilgan savollarga chalg‘itmasdan, to‘g‘ri javob berishi va boshqalar.

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati ishtirokchilikda sodir etiladi. Shu bois faqat ishtirokchilardan biri ariza

bilan murojaat qilsa hamda yuqoridagi shartlarning barchasi mavjud bo'lsa, faqat o'zi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Agar ishtirokchilardan ikkitasi yoki uchtasi birgalikda ariza bilan murojaat etib, yuqoridagi shartlarning barchasiga amal qilingan bo'lsa, faqat murojaat etganlari jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Ushbu jinoyatda qatnashib, davlat idoralariga murojaat etmagan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilish bilan bog'liq jinoyat bo'yicha arizani qabul qilayotgan tergovchi JPKning 324-moddasiga rioya qilib, har bir arizani tegishli tartibda rasmiylashtiradi.

Arizani rasmiylashtirish jarayonida o'ziga nisbatan pora so'rab tovlamachilik qilgan yoki pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin 30 sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan murojaat etayotgan bo'lsa, unga jinoyatni ochishda faol yordam bergen hamda qilmishiga chin ko'nglidan pushaymon bo'lgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi tushuntiriladi. JPKning 90–92-moddalarini asosida bayonnomma tuzilib, arizachiga jinoyat haqida bila turib yolg'on xabar berish JKning 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka olib kelishi batafsil tushuntiriladi hamda ogohlantiriladi.

Dastlabki tergov davomida JPKning 22, 95-moddalariga asosan, har bir holat sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi lozim. Arizachining ko'rsatmalaridan tashqari, boshqa obyektiv dalillar aniqlanmasa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi, shaxs qamoqqa olinishi, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Arizachining ko'rsatmasi hamda shaxsning o'z aybiga iqrorligi boshqa obyektiv dalillar bilan isbotlanishi lozim. Aks holda shaxsga ayb e'lon qilinishi mumkin emas. Demak, shaxsga ayb e'lon qilish uchun pora beruvchi yoki pora olish-berishda vositachi shaxslarning ko'rsatmasi, aybiga iqrorlik ko'rsatmalari bilan birga pora predmeti, qonun doirasida olingan pochta-telegraf va elektron jo'natmalari, audio yoki videoyozuvlari va boshqalar bo'lishi shart.

Shu bilan birga, ishni tergov qilish vaqtida arizachi bilan pora olishda ayblanayotgan shaxsning o'zaro munosabati, o'rtada adovat mavjud yoki mavjud emasligi, o'zaro aloqalarining salbiy va ijobjiy tomonlari, ariza berishdan maqsad, motivlari aniqlanishi lozim.

Agar poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ko'p epizodlardan iborat bo'lsa, har bir ayblov epizodi sinchkovlik bilan tekshirilganidan so'ng huquqiy baho berilishi kerak va qaysi epizod to'laqonli dalil va isbotlar bilan tasdiqlansa, faqat o'sha epizod bo'yicha ayb e'lon qilinishi lozim.

### **3.7. Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarining huquqbazarliklar bilan bog‘liq holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligining 2014-yil 4-noyabrda qabul qilingan «Huquqbazarliklar faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 36/18/49/56-sonli qo‘shma qarori talablaridan kelib chiqib, quyidagi holatlar bo‘yicha ichki ishlar organlariga xabar berish shart.

*Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari:*

- huquqbazarlik faktlari;
- odamlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbazarliklar;
- ta’lim oluvchi shaxs g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbazarliklar sodir etishga jalg etilganligi;
- huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxslar haqida xabar qilishi shart.

*Davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari:*

- ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklar tarqalganligi;
- badaniga shikast yetgan yoxud behush holatda bo‘lgan shaxslar kelib tushganligi yoki murojaat etganligi;
- odamlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbazarliklar;
- voyaga yetmagan shaxs g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga va huquqbazarliklar sodir etishga jalg etilganligi;
- huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbazarliklar sodir etgan shaxslar haqida xabar qilishi shart.

*Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari tomonidan huquqbazarlik faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar:*

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

– talaba-o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish jarayonida to‘plangan ma’lumotlar;

– talaba-o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda qolganligi haqidagi xabar asosida;

– talaba-o‘quvchi va tarbiyalanuvchilar bilan suhbat o‘tkazish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa yo‘llar bilan aniqlanadi.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar:

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida;

– fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayonida;

– murojaat qilgan bemor yoki bemorni olib kelgan shaxs bilan suhbat o‘tkazish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa yo‘llar bilan aniqlanadi.

Huquqbuzarlik faktlari hamda huquqbuzarlik bilan bog‘liq boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari yoki ta’lim muassasalari yoxud davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari yoki sog‘liqni saqlash muassasalari zudlik bilan hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismiga telefon orqali xabar qilishlari shart.

Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organi yoki ta’lim muassasi yoxud davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining mas’ul xodimi hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismiga telefon orqali xabar qilganda hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismi navbatchisi tomonidan xabarning darhol ro‘yxatdan o‘tkazilishi ta’milanadi va xabarnomaga yozib qo‘yish uchun xabar bergen mas’ul shaxsga uning ro‘yxatdan o‘tkazilgan raqami aytildi.

Telefon orqali xabar berilganidan so‘ng tegishli muassasalar belgilangan shakldagi xabarnomani 24 soat ichida hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismiga yetkazilishini ta’minalashlari shart. Shuningdek, ular xabarnomani hududiy ichki ishlari organi navbatchilik qismiga yetkazib berish uchun uni hududiy militsiya tayanch punktiga taqdim etishga haqli. Hududiy militsiya tayanch punktiga kelib tushgan xabarnomaning hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismiga yetkazilishi hududiy militsiya tayanch punkti profilaktika inspektori (katta) inspektori tomonidan ta’minalishi lozim.

Xabarnoma uni rasmiylashtirgan mas’ul xodim tomonidan imzolani va tegishli tashkilotning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi. Ro‘yxat-

dan o‘tkazilgan va raqami yozilgan xabarnoma hududiy ichki ishlar organi navbatchilik qismi navbatchisi yoki militsiya tayanch punkti profilaktika inspektori (katta inspektori) tomonidan qabul qilib olinadi hamda xabarnomaning qirqma qismi uni taqdim etgan mas’ul shaxsga o‘sha vaqtning o‘zida qaytarib beriladi.

Aniqlangan huquqbazarlik faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlar «*Ta’lim muassasalarida huquqbazarlik faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlarni qayd qilish kitobi*»ga yoki «*Sog‘lijni saqlash muassasalarida huquqbazarlik faktlarini hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlarni qayd qilish kitobi*»ga kiritib boriladi. Ushbu kitoblar raqamlangan, tikilgan va tegishli ta’lim muassasasi yoki sog‘lijni saqlash muassasasi tomonidan muhrlangan bo‘lishi shart.

Huquqbazarlik faktlari hamda huquqbazarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlarni qayd qilish kitoblari, ularning yuritilishi tugallangan kundan boshlab, shuningdek xabarnomalarning qaytarib berilgan qirqma qismlari (alohida jildda) ***uch yil davomida*** tegishli ta’lim yoki sog‘lijni saqlash muassasasida saqlanadi.

**IV bob**

**JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI  
HAMDA JINOYAT VA HODISALAR HAQIDAGI XABARLARNI  
QAYD QILISH TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN  
JAVOBGARLIK**

**4.1. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi  
qonun talablarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik**

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining qonuniy va adolatli ko‘rib chiqilishi fuqarolarning davlat organlari va qonunlarga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Shu sababli ham milliy qonunchili-gimizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Davlat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buz-ganlik uchun shaxslarga nisbatan intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy jazo choralarini qo‘llash tahdidi bilan ularning to‘liq ta’minlanishini qonun normalari orqali kafolatlaydi.

Ma’muriy qonunchilik va jinoyat qonunchiligi fuqarolarning kon-stitutsiyaviy huquq va erkinliklari to‘liq amalga oshirilishini ta’minlash vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Mazkur qonunlar fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda shaxsiy huquq va erkinliklariga zarar yetkazgan mansabdor shaxslarga turli jazo choralarini qo‘llanilishini nazarda tutadi. Albatta, bu jazo choralarini, ayniqsa, jinoiy jazo chorasi boshqa huquqiy ta’sir choralarini samara bermagan taqdirda yoki og‘ir oqibatlar kelib chiqqanda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risi-dagi qonun hujjatlarini buzish» deb nomlangan 43-moddasida «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjalari zid qaror qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta’minlamaganlik – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi», deb qayd etilgan.

Ushbu moddaning dispozitsiyasini tahlil qilish mansabdor shaxslarning quyidagi qilmishlari uchun ma'muriy javobgarlik yuzaga kelishini ko'rsatadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy tarzda rad etganlik;
- murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik;
- yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik;
- asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik;
- fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorni real bajarishni ta'minlamaganlik.

***Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy tarzda rad etganlik.*** Mansabdor shaxs tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy murojaatlarini qonunga zid ravishda rad etish (zararli oqibatlarga olib kelmagan taqdirda) ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Murojaatlarni ko'rib chiqishni asossiz rad etish harakat (rad etish haqidagi siperish yoki ariza) yoki harakatsizlik (subyektning o'z mansab majburiyatini bajarmasligi, qabul qilmasligi)da namoyon bo'ladi.

Amaldagi qonunchilik ayrim holatlarda mansabdor shaxslarga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini rad etish huquqini beradi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrda qabul qilgan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuning 8-moddasi 5-bandiga muvofiq, «jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, agar ularning aynan bir masala yuzasidan bir necha bor qilgan murojaatlari bo'yicha qaror qabul qilinib, belgilangan tartibda ma'lum qilingan bo'lsa, rad etilishi mumkin»;
- sud fuqaroviylar da'voniga JPKning 283-moddasidagi holatlar mavjud bo'lganda rad etishi mumkin;
- jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar JPKning 323-moddasiga muvofiq ko'rib chiqilmaydi hamda jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'la olmaydi va boshqalar.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, murojaatlarni ko'rib chiqishni rad etishga qonuniy asoslar bo'lmasa, mansabdor shaxslar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqishga majburdirlar.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish noqonuniy ravishda rad etilganligi ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organ (tashkilot)ga yoki bevosita sudga shikoyat berishga haqli. Murojaatni qabul qilmagan yoki ko‘rib chiqmagan mansabdor shaxslar, zararli oqibatlar kelib chiqmagan bo‘lsa, ma’muriy javobgarlikka tortiladilar.

***Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik.*** «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonunning 19-moddasida murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati aniq belgilab qo‘yilgan. Unda murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun ikkita muddat belgilangan:

- takliflar tushgan kundan e’tiboran bir oy muddat ichida ko‘rib chiqiladi, agar qo‘srimcha o‘rganish talab etilsa, takliflarni mazmun-mohiyatidan kelib chiqib ko‘rib chiqish muddati uzaytirilishi mumkin;
- ariza yoki shikoyatlar tushgan kundan e’tiboran o’n besh kunda, agar qo‘srimcha o‘rganish yoki tekshirish talab etilsa, bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi.

Ushbu muddatlar qat’iy bo‘lib, shu muddat ichida murojaatlar ko‘rib chiqilishi va tegishli qarorlar qabul qilinishi shart. Agar uzrli sabablarsiz ushbu muddat ichida murojaatlar ko‘rib chiqilmasa, zararli oqibatlar kelib chiqmagan taqdirda ma’muriy javobgarlik vujudga keladi.

Uzrli sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mansabdor shaxsning kasallikka chalinib ishga chiqmaganligi;
- uzoq muddatga xizmat safariga ketib qolishi;
- boshqa ishga o‘tib ketganligi (yangi lavozimi murojaatni ko‘rib chiqish vakolatini bermasa);
- mansabdor shaxsning ishdan bo‘shaganligi va hokazo.

***Yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik.*** Murojaatni ko‘rib chiqqan davlat organi murojaat etuvchiga ko‘rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi shart. Agar shu tartibda murojaat etuvchiga xabar yetkazilmagan bo‘lsa, ma’muriy javobgarlik vujudga keladi.

***Asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik.*** Ariza yoki shikoyat yuzasidan qaror qabul qilgan davlat organining mansabdor shaxsi, agar fuqaro qarorga rozi bo‘lmasa, unga qabul qilingan qaror ustidan shikoyat berish tartibini tushuntirishi shart.

Fuqaro mansabdor shaxsning qabul qilgan qaroridan norozi bo‘lib, yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga yoki sudga shikoyat qilsa, uning

shikoyatini tekshirish jarayonida qaror qabul qilgan mansabdor shaxsning qarori qonunga zid deb topilsa, qonunga zid qaror qabul qilgan mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Qonunga zid qarorlar, asosan, mansabdor shaxslarning beparvoligi, ishning mazmuni bilan batafsil tanishmaganligi, unga yuzaki qaraganligi, tanish-bilishchilik qilganligi va boshqacha tarzda o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qarashi natijasida kelib chiqadi.

***Fuqaroning buzilgan huquqlari tiklanishini, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qaror real bajarilishini ta'minlamaganlik.*** «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasiga muvofiq, davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar murojaatlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga rioya etish, ularning to‘liq, obyektiv va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minalash, o‘z vakolat doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini tiklash uchun tegishli choralar ko‘rishga majbur.

Qonunda belgilangan tartibda fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklash yoki fuqaroning shikoyati munosabati bilan qabul qilingan qaror ijro etilishini ta’minalash aynan qaror qabul qilgan organ yoki mansabdor shaxsga yuklatilgan. Mansabdor shaxslarning qarorlarini bajarish o‘zlariga yoki quyi turuvchi tashkilotga, sudning qarorini bajarish esa barcha vakolatli organlar (mansabdor shaxslar)ga majburiydir. Jumladan, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi qonunning «Sud qarorini bajarish» deb nomlangan 9-moddasida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shartligi mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi shart; qaror bajarilmagan taqdirda sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati yuzasidan qaror qabul qilgan mansabdor shaxs zimmasiga qaror ijrosini talab qilish, nazorat qilish, bajarmagan yoki sustkashlikka yo‘l qo‘ygan aybdor shaxslarga intizomiy va boshqa ta’sir choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilgan. Ushbu majburiyatlarini bajarmagan mansabdor shaxslar ko‘rilayotgan modda bilan ma’muriy javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining «Hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz ravishda rad etish» deb nomlangan 44-moddasida «Fuqaroga uning huquq va manfaatlari daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishni asossiz ravishda rad etish – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravrigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi», deb belgilab qo‘yilgan. Asossiz ravishda rad etish ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ishlari, jinoyat ishlari, fuqaroviy da’vo bo‘yicha materiallar va boshqalar bo‘lishi mumkin, eng asosiysi, ushbu rad etilgan materiallar fuqaroning bevosita manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lishi shart.

Murojaat davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillari murojaatning ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborot olish, vajlarini yozma ravishda shaxsan bayon etish va izohlar berish, murojaatni tekshirish materiallari hamda ko‘rib chiqish natijalari bilan tanishish, qo‘srimcha materiallar taqdim etish yoki ularni boshqa organ (tashkilot)lardan so‘rab olish to‘g‘risida iltimos qilish, advokat yoki o‘z vakili xizmatlaridan foydalanish huquqiga egadirlar.

Murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlarning mansabdor yoki vakolatli shaxslari jismoniy va yuridik shaxslarga hamda ularning vakillariga ularning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlari daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan (basharti bu davlat sirlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, insonlarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari ziyon yetkazmassa) tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlashlari shart.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari bevosita ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bilan bog‘liq protsessual hujjatlarni rasmiylashtiradilar. Ichki ishlar organlari xodimlari ma’muriy huquqbazarliklar yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsni, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 294-moddasi (Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari)ga muvofiq, ish materiallari bilan tanishib chiqishiga sharoit yaratib berishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 375-moddasiga ko‘ra, tergovchi to‘plangan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb

topganidan keyin ayblanuvchi va himoyachiga dastlabki tergov tamomlanganligini e'lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining «Fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish» deb nomlangan 46-moddasida «Tibbiy yoki tijorat sirlarini, yozishma va boshqa xabarlar, notarial harakatlar, bank operatsiyalari va jamg'armalar sirlarini, xuddi shuningdek fuqaroga, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ma'naviy yoxud moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor etish – fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi», deb belgilangan.

Mazkur normada fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlangan ularning shaxsiy hayotiga aralashishdan muhofaza qilish huquqini, yozishmalar maxfiyligini va boshqa ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun ma'muriy javobgarlikni (Konstitutsiyaning 27-moddasi), bankka qo'yilgan omonatlari sir tutilishi va meros huquqini buzganlik uchun javobgarlikni (Konstitutsiyaning 36-moddasi), fuqaroga, uning huquqlariga, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ma'naviy va moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Fuqarolar mansabdor shaxslarga murojaat qilganda bayon etgan ayrim ma'lumotlar ba'zi holatlarda ushbu fuqarolar uchun sir hisoblanadi. Chunki ushbu ma'lumotlarni oshkor qilish fuqaroga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli fuqarolarning roziliginini olmasdan turib sirni oshkor qilish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan huqubzunarliklar to'g'risidagi ishlar ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 16-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari ko'rib chiqilgan moddalar bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortilmaydilar. Ularning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog'liq qoidabuzarliklari xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga sabab bo'ladi.

## **4.2. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik**

Jismoniy va yuridik shaxslarning asosiy huquq va erkinliklari amalga oshirilishini ta’minalash jinoyat huquqining barcha tizimlari bilan kafolatlanadi. Jinoyat kodeksining «Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan VII bobida nazarda tutilgan huquqiy normalar fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan va kafolatlangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shaxsiy huquqlarining bevosita amalga oshirilishini ta’milovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun hujjatlarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun hujjatlarini buzish deb nomlangan 144-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ushbu modda ikki qismidan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xi洛f ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta’milamaganlik yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi yoxud yuridik shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning roziligesiz oshkor etish, xuddi shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi», deb qayd etilgan.

Jinoiy javobgarlikning asosi sifatida ushbu qilmishlardan kamida birini sodir etish natijasida jiddiy ziyon kelib chiqishi belgilangan.

Ko‘rilayotgan moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan jinoyat ma’muriy javobgarlik (MJtKning 43,44 va 46-moddalari) bilan sodir

etish usuli bo'yicha farq qilmaydi. Jinoiy va ma'muriy javobgarlik o'rtasidagi asosiy farq qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatdir, ya'ni jinoiy javobgarlikda «jiddiy ziyon» kelib chiqqan bo'lishi lozim, bunday oqibat kelib chiqmagan taqdirda esa ma'muriy javobgarlik vujudga keladi.

«Jiddiy ziyon» baholanadigan, keng qamrovli tushunchadir, shu bois uni rasmiy jihatdan faqat miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin emas. Unga bir tomonlama moddiy ziyondan iborat deb qaramaslik lozim.

Shu nuqtai nazardan, jiddiy ziyonni o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga, ya'ni moddiy va ma'naviy (moddiy bo'limgan) ziyonga ajratish mumkin.

Moddiy xususiyatga ega jiddiy ziyon ham o'z tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- mulkiy (aniq keltirilgan ziyon va boy berilgan foyda);
- jismoniy (jismoniy ziyon – hech bo'limganda bitta jabrlanuv-chining badaniga yengil yoki o'rtacha og'irlikda shikast yetkazilganligi, o'lim kelib chiqishi va boshqalar).

Ma'naviy (moddiy bo'limgan) ziyon deganda fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan asosiy huquq va erkinliklari buzilishini, fuqarolar hayotida salbiy o'zgarishlar kelib chiqishi va boshqalarni tushunish lozim. Jumladan, oilaning buzilishi, ruhiy kasallikka chalinish, saylov kompaniyasi davomida o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi va boshqalar.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunni buzish ishlari bo'yicha har bir alohida olingan holatda aybdorning qilmishi va kelib chiqqan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish aniqlanishi kerak. Agar oqibat boshqa bir sababga ko'ra kelib chiqqan bo'lsa, shaxs Jinoyat kodeksining 144-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksining 144-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatning tarkibi birinchi qismida nazarda tutilganidan tubdan farq qiladi. Unda «jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular davlat organiga, davlat muassasasiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan ta'qib etish – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik

baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi», deb belgilangan.

Masalan, fuqaroning davlat organiga, korxona, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasiga murojaat qilganligi yoki murojaatda bayon etilgan tanqid, shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish, asossiz ravishda boshqa kam maoshli ishga o‘tkazish, qonuniy imtiyozlardan mahrum qilish va hokazo. Bunda jinoiy javobgarlikka tortish uchun jiddiy ziyon yoki boshqacha zararli oqibatlar kelib chiqishi shart emas.

#### **4.3. Jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilish va rasmiylashtirishdagi qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik**

2008 yil 22 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksiga «Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish» nomli 241<sup>1</sup>-moddaning kiritilishi jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ko‘rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilab berdi.

*Jinoyatlar to‘g‘risidagi xabarlar* korxona, muassasa va tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslarning bergan ma’lumotlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan xabarlar, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatni bevosita o‘zları aniqlaganliklari haqidagi hujjatlarda va aybni bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arzlarda mavjud bo‘ladi. Jinoyat haqidagi xabarlar shikoyat yoki taklif ko‘rinishida og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalanishi mumkin.

*Jinoyatlar to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar deganda* jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga hali to‘liq asos bo‘lmasa-da, ammo jinoyat tarkibi boryo‘qligini aniqlash uchun qo‘shimcha tekshiruv ishlarini olib borishni talab etadigan axborotlar tushuniladi. Bular jumlasiga telefon orqali (xususan, xabarlarni avtomatik ravishda yozib boradigan «ishonch telefonlari» orqali) olingan xabarlar, ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar, YHXB xodimlari tomonidan yo‘l-transport hodisasini tekshirish jarayonida haqiqiyligi shubha uyg‘otgan holatlar va boshqalar kiradi. Jinoyat belgilari mavjudligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos bo‘ladi (JPK 322-m. 2-q.).

*Qasddan yashirish* – ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning jinoyat to'g'risida ekanligini bilgani holda ularni bekitib o'zida saqlash, qabul qilishni rad etish, belgilangan tartibda ro'yxatga olmaslik hamda ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarda ifodalangan tayyorgarlik ko'rila-yotgan, sodir etilgan yoki sodir etilayotgan jinoyatlarga qonunda belgilangan tartibda chora ko'rili shiga har qanday usulda to'siq yaratish.

Quyidagi holatlar jinoyatni hisobga olishdan yashirish deb topiladi:

1) jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarga to'g'ridan-to'g'ri chora ko'rmaslik, ya'ni ochiqdan-ochiq jinoyat haqidagi arizani qabul qilmashlik yoki qabul qilib hech qayerda qayd etmaslik;

2) tekshirish materiallaridagi hujjatlarni soxtalashtirib, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori chiqarish, ya'ni voqea joyiga chiqmasdan bildirgi asosida arizadagi holatni tasdiqlanmagan fakt sifatida nazoratdan chiqarish, shuningdek jinoyat haqidagi arizani ko'rib chiqishda jinoyat alomatlari mavjud emas deb, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarorini chiqarish;

3) jinoyat ishining bir qismini alohida yurituvga ajratib, keyinchalik bu ajratilgan qism yuzasidan axborot markazlariga dastlabki hisobot kartochkalarini taqdim etmaslik va ajratilgan qism bo'yicha protsessual qaror chiqarmaslik;

4) jinoyatlar haqida ariza va xabarlarni asossiz boshqa hududiy organga yuborish yoki hududiy tegishliligi bo'yicha yuborilgan deb soxta belgi bilan nazoratdan chiqarish;

5) pochta orqali kelgan jinoyat haqidagi arizani ko'rib chiqish jarayonida jinoyat alomatlari yo'q degan vajlarga asoslangan holda xulosa chiqarish yo'li bilan markazlashgan hisobdan yashirish;

6) jinoyat alomatlari mavjud bo'lgani holda qasddan uni ma'muriy huquqbuzarlik kabi baholash;

7) tergov jarayonida aniqlangan yangi jinoyat holatini ro'yxatga qo'ymaslik va boshqalar.

Qonunga muvofiq, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan holdarda bu haqda surishtiruv yoki dastlabki tergov organi tomonidan taqdim etilgan statistik kartochkalarning o'z vaqtida hisobga qo'yilmasligi, jinoyat ishi ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay tugatilganligi haqidagi xabar Axborot markazi tizimlariga berilmaganligi jinoyatni hisobdan yashirish deb baholanadi.

*Jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslar.* Tahlil etilayotgan holat bo'yicha jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarning jinoyatni hisobdan yashirish deb topiladi.

motlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ko‘rib chiqish, jinoyat ishi qo‘zg‘atish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, jinoyat ishi qo‘zg‘atishga vakolatli mansabdor shaxslar ham, bunday vakolatga ega bo‘lmasa-da, jinoyat haqidagi xabarlar bilan ishslash vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxslar ham javobgar bo‘lishi mumkin. Aytish joizki, jinoyatlar to‘g‘risidagi ariza, xabar va ma’lumotlarni qabul qilib olish, ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobga olish bilan bog‘liq vakolatlar huquqni muhofaza qilish organlarining barcha xodimlariga ham berilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasiga muvofiq, «prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holatda, o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishi qo‘zg‘atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarini ko‘rishlari shart».

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish vakolati berilmagan ayrim mansabdor shaxslarga, yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, qonun hujjatlariga muvofiq jinoyatlar to‘g‘risidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘rib chiqish yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilgan bo‘lishi mumkin. Demak, Jinoyat kodeksining 244<sup>1</sup>-moddasi bo‘yicha vakolatli mansabdor shaxslar, ya’ni prokuror, tergovchi va surishtiruvchi bilan bir qatorda jinoyatlar to‘g‘risidagi ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘rib chiqish yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilgan mansabdor shaxslar ham javobgar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ular qatoriga navbatchilik qismining tezkor navbatchilarini, kotibiyat va tashkiliy-inspektorlik bo‘limi xodimlari, statistika guruhi inspektorlarini ham kiritish mumkin.

Jumladan, mazkur holatga ichki ishlar organi navbatchilik qismi navbatchisi tomonidan jinoyat haqidagi arizani turli bahonalarini ro‘kach qilib qabul qilishni rad etishi yoki qabul qilib olsa-da, uni belgilangan tartibda bu turdagи xabarlarni qayd qilish bo‘yicha maxsus yuritilgan kitob yoki jurnalda ro‘yxatga olmasligi, shuningdek tergovchi arizani shaxsan qabul qilib olib, mazkur holat bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atgan bo‘lsa-da, ammo jinoyatlar sonini kamaytirish yoki tezkor vaziyat ko‘rsatkichini yaxshilash maqsadida tegishli tartibda statistik kartochkani qasddan to‘ldirmaslik yoki jinoyat ishini tergov qilish jarayonida

aniqlangan jinoyat bo'yicha qo'shimcha ayb e'lon qilib, jinoyat ishini sudga yuborsa-da, bu haqda tegishli ravishda navbatchilik qismi orqali xabarni normativ hujjatlar asosida tegishli nazorat organlariga taqdim etmaslik yoki Axborot markazining sodir etilgan jinoyatlarni jamlash va hisobot yuritish bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan hisobot kartochkalari qabul qilib olinib, bu kartochkadagi ma'lumotlarni qasddan hisoba kiritmaslik holatlari bunga misol bo'la oladi.

O'rnatilgan qoidaga ko'ra, tergov jarayonida aniqlangan jinoyatlar yuzasidan xabarlar tergovchilar tomonidan ma'lumotnoma va bildirgi asosida to'g'ridan-to'g'ri navbatchilik qismiga taqdim etilishi lozim.

Tahlil etilayotgan jinoyatning *subyektiv tomoni* to'g'ri qasd shaklida ifodalanadi. Bu borada vakolatli mansabdar shaxs o'z qilmishining qonunga xilof va ijtimoiy xavfli ekanligini biladi hamda muayyan oqibatlar kelib chiqishini xohlaydi.

Jinoyatning motivi va maqsadi turlicha bo'lishi mumkin, masalan, g'arazgo'ylik, tanish-bilishchilik, o'ch olish, iltimosni bajarish va boshqalar. Ammo ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar jinoyat ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar shaklida emas, balki boshqa shakllardagi murojaatlarda ifodalansa va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki boshqa mansabdar shaxslar tomonidan ko'rib chiqilmagan bo'lsa, bunday qilmish tahlil etilayotgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmaydi. Bunday qilmish kelib chiqqan oqibatiga qarab ma'muriy (MJtKning 43, 44-moddalari) yoki jinoiy (JKning 144-moddasi) javobgarlikka olib keladi.

Shuning uchun ham jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlarni qayd qilish va ko'rib chiqish xizmat vazifasiga kirmagan mansabdar shaxsga fuqarolar tomonidan jinoyat haqida arz yoki boshqa xabar bilan murojaat qilingan, lekin ular tomonidan murojaat mazmuni bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmagan hollarda, mazkur shaxslarning qilmishida Jinoyat kodeksining 144, 207 yoki 208-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibi alomatlari bor-yo'qligi haqidagi masala hal etilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqishning qonun hamda normativ hujjatlarda belgilangan tartibi va muddatining buzilishi ushbu xabarlar bilan qonun doirasida ishslash vazifasi yuklatilgan ichki ishlar organlari mas'ul xodimlarining intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlariga sabab bo'ladi.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

### I bob

#### ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY MUROJAATLARINI QABUL QILISH VA QAYD ETISH TARTIBI

1.1. Ichki ishlar organlariga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qilinadigan murojaatlar va ularga qo‘yiladigan talablar .....	5
1.2. Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini umumiy tarzda qabul qilish va qayd etish tartibi .....	9

### II bob

#### MUROJAATLAR, JINOYAT VA HODISALAR HAQIDAGI XABARLARNI HUDUDIY PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI TOMONIDAN QABUL QILISH VA QAYD ETISH TARTIBI

2.1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi .....	16
2.2. Jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik bilan bog‘liq ariza va xabarlarni hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi.....	18

### III bob

#### JINOYAT VA HODISALAR HAQIDAGI XABARLARNI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QABUL QILISH VA KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

3.1. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘ladigan ariza va xabarlar .....	24
3.2. Jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni shahar-tuman ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari tomonidan qabul qilish va qayd etish tartibi.....	27
3.3. Bir necha jinoyatlar hamda bir guruh shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilganida ro‘yxatga olish tartibi.....	32
3.4. Jinoyat haqida xabar kelib tushganida amalga oshiriladigan dastlabki harakatlar .....	35
3.5. Jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish. Ma’muriy, intizomiy va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar bo‘yicha ko‘riladigan choralar.....	39
3.6. Poraxo‘rlik jinoyatlari haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlari .....	41
3.7. Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarining huquqbuzarliklar bilan bog‘liq holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi.....	47

#### **IV bob**

### **JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI HAMDA JINOYAT VA HODISALAR HAQIDAGI XABARLARNI QAYD QILISH TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

4.1. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun talablarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik .....	50
4.2. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonun talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.....	56
4.3. Jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilish va rasmiylashtirishdagi qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik.....	58

Shavkat Tohirovich IKRAMOV;

Muzaffar Ziyodullayevich ZIYODULLAYEV;

Ibrohimjon Abdullajonovich SOTTIYEV

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MUROJAATLAR VA  
HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDAGI XABARLARNI  
QABUL QILISH, QAYD ETISH VA HAL ETISH TARTIBI**

*O‘QUV-AMALIY QO‘LLANMA*

*Muharrirlar S.A. Razzoqov, B. A. Yarov  
Texnik muharrir D. R. Djalilov*

---

Bosishga ruxsat etildi 13.04.2015. Nashriyot hisob tabag‘i 4,5.  
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № . Bahosi shartnomaga asosida.

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68